

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT BOJXONA QO'MITASI
BOJXONA INSTITUTI

G.A. ASILOVA

**BOJXONA ORGANLARI XIZMAT
FAOLIYATIDA DAVLAT TILI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA
QO‘MITASI**

BOJXONA INSTITUTI

G.A. ASILOVA

**BOJXONA ORGANLARI XIZMAT
FAOLIYATIDA DAVLAT TILI**

**Oliy ta’limning 5230500-Bojxona ishi yo‘nalishi
rus guruhlari talabalari uchun uslubiy qo‘llanma**

Toshkent – 2019

Asilova G.A. Bojxona organlari xizmat faoliyatida davlat tili.
O‘quv qo‘llanma. – T., 2019. – 125 b.

Taqrizchilar: M. Abdurahmonova – filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O‘zMU)

S. Gulyamov – iqtisod fanlari nomzodi,
dotsent (DBQ BI)

Mazkur uslubiy qo‘llanma oliy ta’limning 5230500-Bojxona ishi bakalavriat yo‘nalishida ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlar talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, bo‘lajak mutaxassislarning o‘zbek tilida ixtisoslik nutqini o‘stirishga qaratilgan.

DBQ Bojxona instituti Kengashining 2019-yil 19-yanvardagi 6/1-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘ZBOSHI

Mazkur uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Bojxona organlari faoliyatida davlat tili” fan dasturi asosida yaratilgan va “Bojxona ishi” yo‘nalishi 2-kurs rus guruhlariga talabalariga mo‘ljallangan. O‘quv materialini ta’limining yuqori bosqichi darajasida tuzilgan.

Qo‘llanmaning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarni davlat tilida kasbiy og‘zaki va yozma muloqot yuritish, bojxona terminlarini nutqda samarali va to‘g‘ri qo‘llash, soha doirasida monologik va dialogik matn tuzish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirishdan iborat. Qo‘llanmada nutq o‘stirishga qaratilgan turli pedagogik texnologiyalardan foydalanildi, sohaviy materiallarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishga ham keng o‘rin berildi.

Uslubiy qo‘llanma bojxona sohasiga oid nutqiy mavzular asosida qurilgan bo‘lib, 18ta amaliy mashg‘ulotga mo‘ljallangan. Amaliy topshiriqlar nutqiy faoliyatning o‘qish, gapirish, yozish kabi shakllari, shuningdek og‘zaki va yozma kasbiy muloqot ko‘nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim metodlari pirovard natijada bo‘lajak bojxona xodimlarida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishiga erishishni ko‘zda tutadi.

Qo‘llanmadan bojxona terminlarining o‘zbekcha-ruscha qisqa lug‘ati ham o‘rin olgan.

***1-mavzu* BOJXONA TERMINOLOGIYASI**

1. Baynalmilal so‘zlarning ma’nosini sharhlang. Ulardan qaysilari bojxona ishida qo‘llanadigan terminlar ekanligini ayting.

Aksiya, aksiz, barter, birja, brutto, deklaratsiya, institut, integratsiya, kodeks, kvota, ofitser, prezident, sessiya, tarif, valuta, yurisprudensiya.

2. Quyida berilgan terminlarning o‘zbekcha muqobillarini yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Личный досмотр, формы таможенного контроля, виды таможенных деклараций, пассажирская таможенная декларация, способы декларирования, резиденты и нерезиденты, «зеленый» и «красный» коридоры, иностранная валюта, таможенное оформление, таможенное сопровождение.

3. Matnni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntirib bering.

Istiqlol yillarida yozma va og‘zaki nutqda *milliylashtirish* jarayoni boshlanib, nom, atama va terminlarni sof o‘zbek tilida atash ehtiyoji vujudga keldi. Sobiq Ittifoq *tanazzulidan* so‘ng MDH respublikalarining mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tishi bozor iqtisodiy siyosatining jadal amalga oshirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Ushbu siyosatni amalga oshirishning maqbul yo‘li rivojlangan davlatlar ish tajribalarini o‘rganish va mos tarzda o‘zlashtirish edi. Bu esa o‘z o‘rnida iqtisodiy terminlarning ko‘plab o‘zlashishiga va tilshunoslik sohasida “terminologik portlash” jarayonining yuz berishiga olib keldi. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy burilish natijasida yangi bojxona terminologik birliklarining o‘zbek tili zaminida rivojlanishi kuzatildi. Bu kabi *ekstralingvistik* omillar bojxona terminologik tizimiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Buning natijasida o‘zbek tili leksik

qatlamiga ingliz tili orqali lotin, fransuz, italyan, grek tillaridan *baynalmilal* xarakterga ega bo'lgan terminlar kirib keldi va ular bugungi kunda ona tilimizda qo'llanmoqda.

Zamonaviy bojxona terminlari o'zbek tili terminologik tizimi birliklari *semantikasida* yangi lingvistik nominatsiyalar sifatida talqin qilinadi. Bunday termin-neologizmlarning ayrimlari hozircha umumiste'molga keng kirib bormagan bo'lsa-da, hukumat qarorlari, bojxona sohasidagi rasmiy hujjatlar va davriy matbuot sahifalari orqali keng jamoatchilik ahliga ma'lum bo'lib bormoqda. Biroq ayrim holatlarda lug'atlar ham, xususan, terminologik lug'atlar terminologiyaning rivojlanishi orqasidan yetishga ulgurmayotganini e'tirof etish joiz.

Ayni paytda, o'zbek tili bojxona terminologiyasida chet tillar, xususan, ingliz tilidan *kalka* usulida o'zlashtirilayotgan yangi terminlar vujudga kelishi natijasida terminologik tizim fondi muntazam ravishda kengayib, to'ldirilib borilayotgani ham kuzatilmoqda. Demak, tilning terminologik tarkibi muttasil davom etadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan o'zaro mustahkam aloqada bo'ladi.

Istiqlolgacha bo'lgan davrda o'zbek tili bojxona terminlarining kalka usulida yasalishi nuqtayi nazaridan rus tili vositachi til vazifasini bajargan. O'zbek tili bojxona terminologik tizimida keng qo'llanadigan *leksik qatlamning* asosiy qismi rus tili ta'siri ostida shakllanishi tasodifiy holda sodir bo'lmagan. O'zbek tili bojxona terminologik tizimining shakllanishi, terminlarning yasalishidagi asosiy usul to'liq kalkalashdir. Shu bois istiqlolgacha bojxona terminlari muloqot doirasida nisbatan kamroq qo'llangan. Ularning *muqobili* sifatida rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan *тамoжня* termini faolroq edi.

4. Bojxona terminlarining quyidagi guruhlariga lug'atdan 10tadan misol yozing. Ularni izohlang.

bojxona nazorati

valuta nazorati

bojxona rasmiylashtiruvi

bojxona to'lovlari
bojxona statistikasi
bojxona ekspertizasi
bojxona ishida axborot texnologiyalari

5. Quyidagi terminlarning ma'nosini sharhlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Tovar ayirboshlash, o'zaro hamkorlik, o'zaro aloqalar, soliqqa tortish, soliq to'lovchi, huquq tartiboti, huquqbuzar, tashqi savdo operatsiyalari, yuk kuzatuv hujjatlari.

6. Chap ustundagi so'zlarga o'ng ustundagi so'zlardan moslarini topib, so'z birikmalari hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

bozor	asosiy
boshqaruv	bojxona
bo'g'in	davlat
hujjatlar	dunyo
kodeks	fiskal
tartib	harbiy
tashkilot	huquqni muhofaza qiluvchi
texnologiyalar	jamoat
valuta	iqtisodiy
vazifa	milliy
xavfsizlik	moliyaviy
xizmat	zamonaviy
yo'nalish	o'rta

7. So'z birikmalarini o'zbek tiliga o'giring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Обеспечить порядок и безопасность, принять и ввести в действие, принципы регулирования внешнеэкономической деятельности, учитывать современные практические установки международного законодательства, подготовка квалифицированных кадров, повышение квалификации.

8. Mavzu bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida quyidagi jummlarni to'ldiring.

Men shuni bildimki, ...
Shunisi qiziq bo'ldiki, ...
Menga ... qiyin bo'ldi.
Men shuni tushundimki, ...
Endi men ...
Men ... ga ega bo'ldim.
Men ... ni o'rgandim.
Men ... ga harakat qilaman.
Mashg'ulot menga hayotda ...
Men istaymanki, ...

9. Bojxona terminlarining tarixi haqida ma'lumot tayyorlang.

2-mavzu BOJXONA ISHINING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOTI



1-mashg'ulot

1. Quyidagi so'z va iboralarning ma'nosini tushuntirib bering.

Savdogar, tovar, boj, soliq, bojxona, ko'chmanchilar, olib o'tiladigan tovar, xazinaga tushum, daromad manbayi, boj imtiyozlari, madaniy aloqalar, karvonsaroy.

2. Savollarga javob bering.

Bojxona ishining dastlabki ko'rinishlari qachon paydo bo'lgan?
Ilk undirilgan qanday bojlarni bilasiz va ularni undirishdan maqsad nima edi?

Markaziy Osiyoda bojxonalar qachondan faoliyat yuritgan?

Amir Temur saltanatida soliq-bojxona siyosati qanday bo'lgan?

Mamlakatimiz hududida dastlab qaysi bojxona postlari tashkil etilgan?

3. Matnni o‘qib, mazmunini so‘zlab bering. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan toping.

Bojxona ishining dastlabki ko‘rinishlari eramizdan oldingi davrlardayoq paydo bo‘lgan. Miloddan avval qadimgi Sharq mamlakatlarida (Misr, Vavilon, Assiriya) boj munosabatlari mavjud bo‘lgan.

Eramizdan avvalgi III–II ming yillarda Assiriya podshosi Ashshur savdoga olib kelingan tovarlardan boj olish to‘g‘risida farmon chiqargan. U “Ashshur boji” nomi bilan tarixga kirgan.

Insoniyatning turg‘un hayotga o‘tishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, davlatchilikning rivojlanishi ortiqcha tovarlarni sotishga yoki almashtirishga olib kelgan, natijada savdo yo‘llari ochilgan va rivojlangan. Shahar-davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi savdo-sotiqning takomillashishiga olib kelgan. Savdo muayyan qoidalarga binoan amalga oshirilgan. Yozuv va raqamlar paydo bo‘lgach, bu qoidalar yanada mustahkamlanib, savdo-sotiqni rag‘batlantirgan.

Qadimgi Misr (miloddan avvalgi III ming yillik boshlari) savdogarlari Finikiya shaharlari va Qizil dengiz havzasi aholisi bilan savdo qilishgan. Savdo kengayib, karvonlar kattalashib borgan sari yo‘lda karvonlarga hujum uyushtirilib, talon-taroj qilish holatlari ko‘paygan. Karvonlarni qo‘riqlash uchun maxsus qo‘riqchilar yollash katta sarf-xarajatlar talab etar edi. Ushbu xarajatlarni qoplash maqsadida maxsus yig‘imlar joriy qilinib, undirila boshlandi.

Qadimgi Yunonistonda bojlar asosan dengiz portlarida va shahar bozorlarida yig‘ilgan. Ularni yig‘uvchi shaxslar va maxsus guruhlar bo‘lgan. Boj yig‘ilishi hukumat vakillari tomonidan nazorat qilingan. Aynan o‘sha davrda bojxona ishini erkinlashtirish yuz berib, boj to‘lovlari pasaytirilgan. Bu bilan harbiy nizolarning oldi olingan, chunki yig‘imlarning oshishi va tovarlarni olib kirishni taqiqlash harbiy harakatlarning boshlanishiga sabab bo‘lgan. Yunonistonning o‘zida xorijdan keltirilgan tovarlar uchun boj to‘lovi shu tovar bahosining o‘ndan biri miqdorida undirilar edi. Keyinchalik bojlar tovar bahosining 20, 50 va 100dan bir qismigacha qisqartirildi.

Bojxona munosabatlarining eng rivojlangan tizimi Qadimgi Rimda bo‘lgan. Miloddan avvalgi VI asrda Qadimgi Rim podshosi Ank Marsiy Ostiya shahrida dengiz porti qurdirgan va xorijdan olib kirilayotgan tovarlar uchun boj tayinlagan. Ushbu boj dengiz portida undirilganligi sababli “portium” deb atalgan.

Miloddan avvalgi III asrda Gibraltar bo‘g‘ozidan kemalarning o‘tishi uchun boj olingan. Dengiz portlariga kirib kelayotgan yuklardan boj undirish mexanizmini takomillashtirish uchun Ispaniyaning Tarif shahrida ilk bor tovarning nomi va undan undiriladigan boj miqdorining ro‘yxati ishlab chiqilgan. Jadvalga olib o‘tilayotgan tovar nomi, uning o‘lchov birligi va olib o‘tish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘im miqdori kiritilgan. Ushbu jadvalni o‘ziga xos bojxona kodeksi deb atash mumkin, chunki u bojlarni to‘lash tartibini yagona tizimga birlashtirib, to‘lovlarning miqdorini birxillashtirgan.

Qadimgi manbalarda slavyan tillaridagi “таможня” so‘zi turkiy tillardagi “tamg‘a” so‘zidan kelib chiqqanligi haqida ayrim dalillar keltiriladi va ushbu so‘zning tarixiy taraqqiyoti quyidagicha sharhlanadi: “тамга” – “тамжить” – “таможня”.

Ayrim manbalarda ko‘rsatilishicha, xalqimizning tilida bojxona terminlari ilk bor VII–VIII asrlarda paydo bo‘lgan. Bu davr O‘rta Osiyoga Islom dinining kirib kelgan davrga to‘g‘ri keladi. Buni Qur’oni Karimda ham ushbu sohaga oid ko‘plab terminlar uchrashi tasdiqlaydi.

Bojxona terminlarining shakllanishi haqida ma’lumotlar berilgan ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyo hududida to‘lovlarning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lganligi qayd etiladi. Ularda hatto *devonbegi*, *omil*, *zakotchi*, *mushrif*, *muhassil*, *sarkor* kabi aynan davlat moliya idoralarida boj va soliq yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga berilgan mansab hamda unvon nomlari ham keltirib o‘tilgan. Shuningdek, manbalarda “nisab” so‘zi ko‘p uchraydi va bu termin zakot undirilishi uchun hisoblab chiqilgan mol-mulk summasini bildiradi. Zakotning asl ma’nosi “tozalash” demakdir. U mol-mulkning biror qismini muhtoj insonlarga xayr-sadaqa etish orqali uning qolgan qismini “tozalab”, “poklab” olishni anglatadi.

Shuningdek, *boj-xiroj, ammol-soliqqir* atamaları Alisher Navoiy asarlarida ham ko‘plab uchraydi.

Bojxona va soliq ishi hamisha davlatchilik tizimi va siyosati bilan bog‘liq bo‘lganligini Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida ushbu sohaga ko‘plab yangi terminlar kirib kelganligi tasdiqlaydi.

4. Gaplarni davom ettiring.

Boj munosabatlari moliya-iqtisod tizimining bir qismi sifatida

Boj munosabatlarining rivojlanishiga

Buyuk Ipak yo‘lidagi boj yig‘imlari haqida

Qadimda qo‘llangan boj turlaridan

Bojxona imtiyozlari

Savdo-sotiq uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar

5. Dastlabki bojlarning nomlarini ketma-ketlikda ko‘rsating.

Javoblar	To‘g‘ri javob	Boj nomi
		Zakot
		Portium
		Ashshur boji
		Tarif

6. Berilgan so‘z birikmalaridan foydalanib, kichik matn tuzing.

Turg‘un hayot, qaroqchilar, talon-taroj qilish, yig‘imlar, undirish, imtiyoz, boj salmog‘i, savdo ko‘lami, qal‘a, tamg‘a, ziyoratchilar.

7. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan terminlarning mazmunini etimologik lug‘atdan toping.

Bojxona ishining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga qadimgi davlatlar o‘rtasida savdo aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi sabab bo‘lgan. Insoniyatning o‘troq hayot kechirishga o‘tishi, qadimiy sivilizatsiya

taraqqiy etgan yerlarda davlatchilik hamda ishlab chiqarishning rivojlanishi, ehtiyojdan ortib qolgan tovarlarni sotish yoki almashtirishning ommalashishi savdo aloqalarini yanada yuksaltirgan.

Bojxona idoralari davlat tuzilmasining muhim bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda qadim zamonlardayoq mavjud bo'lgan. Tarixiy manbalarda Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatning barpo etilishi hamda Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasida mustahkam aloqa bog'lanib, savdo ko'laminin kengayishi tufayli davlatlararo iqtisodiy aloqalar jarayonida turli o'lponlar va boj to'lovlarini undirish yo'lga qo'yilganligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. "Temur tuzuklari"da ushbu sohaga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, "Raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshirish tuzuki" deb nomlangan. Unda, jumladan, quyidagi satrlar bor: "Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi".

Tarixiy hujjatlarda "tamg'a" so'zi bilan bir qatorda "boj" atamasi ham uchraydi. Shayboniylar davlatida savdogarlarning bir viloyatdan boshqa viloyatga, shuningdek qo'shni shaharlarga olib boradigan tovarlaridan boj olingan. Boj va tamg'a soliqlarini nafaqat savdogarlar, balki hunarmandlar, shaharga dehqonchilik va chorva mahsulotlarini olib kelgan dehqonlar ham to'laganlar. Ushbu ma'lumotlar qadimda bojlarning barcha turlari baravar qo'llangani mamlakat xazinasini to'ldirishda katta xizmat qilganidan dalolat beradi. Umuman, Temuriylar davrida boj siyosati nihoyatda ravnaq topgan, biroq saltanatning parchalanib ketishi mamlakatimizda bojxona ishining rivojiga putur yetkazgan. Manbalarda keltirilishicha, "XVI–XIX asrlarda tashqi savdo avvalgidan sustroq rivojlangan. Buning sababi, XV oxirlarida Usmonli turklar O'rta Yer dengizi bandargohlarini yopib qo'yishdi, shuningdek, ushbu asrdan buyuk geografik kashfiyotlar

davri boshlanib, okeanlar orqali yangi yo‘llar ochildi va davlatlararo savdo ko‘proq suv yo‘llari orqali olib boriladigan bo‘ldi”.

Xonliklar davrida mamlakatimiz hududida *xiroj, jizya, ixrojot, boj* soliqlarning asosiy turlari sifatida qo‘llangan. Xiva xonligida *boj, jizya* kabi soliqlar qatorida *salg‘ut, ag‘ut, miltiq puli, tarozi puli, darvozabon puli, mushrifona* kabi 20dan ortiq yig‘imlar to‘langan. Buxoro amirlariga qarashli bo‘lgan Chiroqchi bekligida *avorizot* (favqulodda holatlarda yig‘iladigan harbiy soliq), *qoracherik* (Buxoro amirligi qo‘shinlarini boqish uchun beriladigan soliq), *yaksara* (qo‘sh puli; qo‘sh ho‘kizi borlardan yig‘ilgan), *cho‘p puli, xarbut puli* (lalmikor yerlarga ekiladigan tarvuzlardan olingan), *muhrona* (qozi, mufti, rais va boshqa hukmdorlarning muhri uchun soliq), *xizmatona* (qozilarga, beklarga berilgan to‘lov), *vasiqa puli* va boshqa soliq turlari ham bo‘lgan.

Bojxona sohasi rivojlanishining keyingi bosqichi Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston general-gubernatorligi tuzilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. 1867-yilda Turkiston o‘lkasini boshqarish uchun ishlab chiqilgan “Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi qoidalar loyihasi” Turkiston general-gubernatorligi tuzilgandan keyin o‘lkada bojxona ishini yuritishning dastlabki huquqiy asosi bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Unga ko‘ra “1868-yili Turkiston general-gubernatorligi tarkibida boshqa masalalar qatori zakot ishlarini yuritish uchun Xo‘jalik boshqarmasi tashkil etilib, u chegara ortidan kelayotgan har bir karvondan shariat bo‘yicha belgilangan miqdorda zakot undirish bilan shug‘ullangan”. Bundan ko‘rinadiki, o‘sha davrda bojxona idoralarining vazifasini Zakot boshqarmasi bajargan. Zakot boshqarmasining asosiy ishi Turkiston o‘lkasiga kelgan yoki chiqib ketayotgan karvonlarni ro‘yxatga olish, yuklarning qiymatini aniqlash, yuk va chorva mollaridan zakot undirishdan iborat bo‘lib, kirib kelayotgan yoki chiqayotgan karvonlarni nazorat qilish uchun chegaralarda maxsus zakot maskanlari faoliyat yuritardi. Bu davrda zakot to‘lovi davlat xazinasiga tushib, karvon yo‘llarini ta’mirlash va karvonsaroylarning ichki ehtiyoji uchun berilardi.

8. “Temur tuzuklari”ning soliq va bojxona siyosatiga oid bo‘limi bilan tanishib, uning asosiy g‘oyasini matn ko‘rinishida ifodalang.

9. Tarixiy manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘zbek tiliga o‘giring.

Ватиканский архиепископ Иоанн, чей «офис» долгое время находился в Султаннии – империи Темура, отмечал льготы, предоставленные Темуром торговцам:

«Темур считал желательными иностранных купцов и даровал им благоприятные условия и безопасность по всем его владениям... Если какой-либо купец был ограблен где-либо в его землях, правитель земли, где он был ограблен, возмещал купцу вдвойне то, что он потерял, а кроме того, в пятикратном размере выплачивал эту сумму Темуру».

... Случилось это во время правления в Андижане Темурида Умар-шейха, отца знаменитого Бобура. Из Китая возвращался большой караван, насчитывавший пятьсот человек, огромное количество тяглогового скота, и, конечно, много груза. В горах путников настигла снежная буря, они были погребены под снегом. В живых остались два человека, которые, добравшись до Андижана, рассказали там о случившемся. По приказанию Умар-шейха товары, что вёз караван, были извлечены из-под снега и помещены под надёжную охрану. Они содержались там до тех пор, пока не были найдены наследники. А их пришлось искать не только в Андижане, но и в Хорасане, Иране, Ираке.

Во времена Темура, а возможно, и раньше существовали некоторые таможенные льготы. Например, от таможенных пошлин были освобождены так называемые «красные товары». Красными они назывались потому, что сопроводительный документ на эти товары – *рохнома* (подорожная грамота) – была скреплена не обычной, а красной, то есть царской, печатью. А это означало, что товары предназначались в дар правителю. Подарки по существующим тогда правилам пошлиной не облагались.

В средние века европейские феодалы сознательно копали рвы и возводили на них мосты, за проезд по которым взимали дополнительную таможенную плату. Мало того, в некоторых землях действовало правило, по которому упавший с телеги товар принадлежал местному феодалу. Для этого дороги дополнительно и с особым рвением разбивали. А когда через земли какого-нибудь князя шёл купеческий караван, феодал, сидя на коне на возвышении, нетерпеливо ждал свою «добычу». А между телегами шныряли слуги, готовые мгновенно её «оприходовать». Сообразительные торговцы привязывали свой груз к телеге, но, тем не менее, что упало, то пропало, вернее, перепало алчному феодалу.

10. “Qadimgi bojxonalar” mavzusida matn tuzing va uni so‘zlab bering.

2-mashg'ulot

1. Otlarga sifatlar keltiring. Hosil bo'lgan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Tashkilot, mas'uliyat, faoliyat, tizim, xizmat, tayyorgarlik, texnologiyalar, qonunchilik, kadrlar.

2. Qavs ichidagi so'zlarni o'zbek tiliga o'girib, so'z birikmalari hosil qiling. Ularning qo'llanish sohasini ayting.

Siyosat (проведение), bozor (функционирование), hamkorlik (углубление), muammo (решение), islohot (проведение), iqtisodiyot (либерализация, стабилизация), manfaatlar (защита), ichki bozor (обеспечение), iste'molchi (защита), aloqalar (укрепление).

3. Matnni o'qib, mazmunini gapirib bering.

Bojxona ishi o'rta asrlarga kelib Yevropada ham muhim o'rin egallab, davlat siyosatiga aylandi. Yevropaning feodal davlatlarida boj yig'uvchilar yuqori mavqega ega edi. Fransiyada ular qirol amaldorlariga tenglashtirilgan bo'lib, yepiskoplar va graflar bilan bir qatorda turar edi.

Bojxona organlari Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan, chunki Buyuk ipak yo'li Markaziy Osiyo hududidan o'tgan.

Amir Temur Buyuk ipak yo'lida savdoni rivojlantirish, uning xavfsizligini ta'minlash, karvonsaroylar qurish, savdogarlar uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida juda katta ishlar qildirgan. Natijada savdo ko'lami kengaygan.

XV asrda Samarqandga Hindistondan attorlik va bo'yoq buyumlari, Xitoydan ipak gazlamalar, chinnilar, qimmatbaho toshlar, shimoldan esa noyob po'stinlar karvonlari ko'plab kelgan. Bu yerdan Osiyoning boshqa shaharlariga, Yevropa mamlakatlariga ham karvon-karvon mollar jo'natilar edi.

Amir Temur davrida bojlarni tartibga soluvchi hujjatlar ishlab chiqilib, shularga amal qilingan. O'sha davrda Yevropa, Osiyo, yaqin Sharq davlatlari bilan savdo-sotiq ishlari olib borilgan va savdogarlarga katta imtiyozlar berilgan. Davlat chegaralariga qal'alar qurdirib, o'tuvchilarni o'sha yerda kutib olishgan. Karvonsaroylarga joylashtirib, boj olishgan, yuklariga tamg'alar bosib berishgan. Bu ishlar shahar darvozasiga kirishda yoki bozorda amalga oshirilgan. Tamg'a bosish tajribasi aynan Amir Temur davrida joriy qilingan. Hozirgi kunda qo'llanilib kelayotgan "таможня" so'zi "tamg'a" so'zidan kelib chiqqan.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo bosib olingach, Turkiston guberniyasi tashkil etilgan. Rossiyada 11ta chegara okrugi bo'lib, ulardan biri Turkiston okrugi edi. Turkiston okrugida birinchi bojxona posti 1895-yilda Termiz shahrida tashkil etilgan va u "Pattakesar" bojxona posti deb nomlangan. O'sha davrda Afg'oniston hududidan Turkistonga ko'plab kontrabanda tovarlari va qurol-yarog'larni olib o'tilar edi. "Pattakesar" bojxona posti Afg'onistondan chegara orqali o'tgan yuklardan boj olish va nazorat qilish bilan shug'ullangan. Bundan tashqari, har yili ushbu bojxona posti orqali 2500 nafardan ziyod haj safariga boruvchi ziyoratchilar o'tkazilgan.

4. Jadvalni to'ldiring. Undagi ma'lumotlarni sharhlang.

T\r	Sana	Hujjat nomi	Hujjat raqami
1	1991.25.10		
2	1992.10.08		
3	1994.18.01		
4	1997.08.07		
5	1997.30.07		
6	1997.29.08		
7	1997.26.12		
8	1998.27.03		

5. Berilgan parchalardan yaxlit matn shakllantiring.

1.

1984-yillar boshida Afg‘onistonga yuborilayotgan harbiy yuklar nazoratini kuchaytirish maqsadida Toshkent shahri yaqinida “Tuzel” bojxona posti, Farg‘ona shahrida “Farg‘ona” bojxona posti tashkil etilgan.

2.

O‘zbekiston hududidagi bojxona ishlari bevosita SSSR poytaxti Moskvadan boshqarilgan va rahbar xodimlar ham ular tomonidan tayinlangan. O‘zbekiston bojxonasi tomonidan ushlab, musodara qilingan tovarlar va undirilgan bojxona to‘lovlari to‘liq ravishda Moskva ixtiyoriga o‘tkazilgan.

3.

1925-yilda Bojxona boshqarmasi SSSR Bosh Bojxona boshqarmasiga aylantirilgan. Uning tarkibida 11ta bojxona inspektorlari idoralari bor edi. O‘zbekistonda ham shu idoraga bo‘ysunuvchi “Pattakesar” bojxona posti “Termiz bojxonasi”ga aylantirildi.

4.

Toshkent shahrining aeroporti SSSRning janubiy darvozasi hisoblangan va yuk aviatsiyasi rivojlanishi natijasida chet eldan kelayotgan samolyotlar Toshkent aeroportiga qo‘nib o‘tgan. Toshkent orqali tranzit havo yo‘llari ochilishi munosabati bilan 1959-yil 14-aprelda Toshkent aeroportida alohida bojxona posti tashkil qilindi va u Termiz bojxonasiga bo‘ysundirildi. Yangi tashkil etilgan Toshkent aeroporti bojxona postida dastlab 3 nafar xodim ishlagan. XX asrning

70-yillarida Toshkent aeroporti bojxona posti mustaqil “Toshkent bojxonasi”ga aylantirilgan. 1988-yilda esa “Toshkent bojxonasi” O‘zbekiston SSR bojxonasiga aylantirilgan.

5.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, 1991-yilning sentabrida Respublika Ichki ishlar vazirligi huzurida “O‘zbekiston Respublikasi hududidan tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy olib chiqib ketilishining oldini olish bo‘yicha Inspeksiya” tashkil etildi. Endigina mustaqil bo‘lgan davlat hududiy chegaralarining ochiqligi va nazoratning yo‘qligidan foydalanib, ko‘plab zarur iste‘mol tovarlari tashib olib chiqib ketila boshlanganligi sababli 1991-yil 25-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Bojxona qo‘mitasi tashkil etildi.

6.

1988-89-yillarda Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo‘qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmaliq bojxona postlari ishga tushgan va ular ham O‘zbekiston SSR bojxonasiga bo‘ysundirilgan.

6. Berilgan reja asosida O‘zbekiston bojxona xizmatining taraqqiyoti haqida so‘zlab bering.

1. SSSR tarkibidagi O‘zbekiston bojxonasining faoliyati.
2. Mustaqillik davrida bojxona xizmatining rivojlanishi.
3. Bojxona organlari faoliyatiga oid qonunchilik bazasining yaratilishi.
4. Bojxona organlari uchun kadrlarni tayyorlash tizimi.

7. Berilgan terminlarning mazmunini izohli lug‘at yordamida sharhlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Monitoring, xavf, tuzilma, shtat birligi, xizmat intizomi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, huquqni qo‘llash amaliyoti, tashqi savdo operatsiyalari, bojxona statistikasi, bojxona laboratoriyasi, kinologiya xizmati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

8. Quyidagi so‘z birikmalari istirokida bog‘lanishli matn tuzing.

Bojxona ishini rivojlantirish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, bojxona postlari faoliyatining samaradorligini oshirish, kadrlar zaxirasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilish.

9. Ommaviy axborot vositalaridan O‘zbekiston bojxona organlarining faoliyati haqida maqolalar topib, ulardan biriga taqriz yozing.

3-mavzu O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA SOHASIGA OID QONUNCHILIGI

1. Savollarga javob bering.

“Qonun” so‘zining ma’nosi nima?

O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi organ qaysi?

Siz qonun hujjatlarining qanday turlarini bilasiz?

Bojxona sohasi faoliyatini tartibga soluvchi qaysi qonun hujjatlari mavjud?

2. Quyidagi tushunchalarning ma’nosini bilib oling.

“**Qonun**” so‘zi arab tilida “tartib”, “qoida”, “ko‘rsatma” ma’nolarida qo‘llanadi. O‘zbek tilida “Qonun” so‘zining birinchi ma’nosi obyektiv borliqda turli hodisalar o‘rtasida kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari hamisha mavjud bo‘lgan muhim, zaruriy, barqaror bog‘lanish, munosabatni anglatadi. Masalan, *tabiat qonunlari, energiyaning saqlanish qonuni*.

Shuningdek, “qonun” so‘zi davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida, ana shunday munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasini anglatadi. Masalan, *qonunlar to‘plami, qonun chiqaruvchi organ*.

Qonunchilik – 1) ijtimoiy hayot va faoliyatning qonunlar bilan ta’minlanishi holati; 2) biror mamlakatga yoki sohaga oid qonunlar, huquqiy hujjatlar majmui.

Kodeks – (lot. “kitob, qonunlar, qarorlar to‘plami”) qonun hujjati bo‘lib, u yoki bu sohaning yoki bir necha sohalarning tizimlashtirilgan normalarini o‘z ichiga oladi. Kodeksning strukturasi asosan sohaning tizimini aks ettiradi.

Kodifikatsiya – tarqoq, fragmentlardan iborat normalarni yagona normativ kompleksga yig‘ishga qaratilgan jarayon.

Norma – (lot. “qoida”) ma’lum bir sohada amal qiladigan va bajarilishi talab etiladigan qoida.

3. Berilgan so‘z va so‘z birikmalarining o‘zbekcha muqobillarini yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Законный, законодательство, узаконить, незаконный, нарушение закона, законно, закономерность, беззаконие, подзаконный, законотворческий, законный представитель, приоритет закона.

4. Matnni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning mazmunini tushuntiring.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- 1) asosiy qonun – Konstitutsiya;
- 2) Konstitutsiyaviy qonin;
- 3) Qonun (kodekslar va joriy qonunlar);
- 4) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari.

Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu hujjat davlat *hokimiyatining* tashkil etilishini va boshqaruv mexanizmini belgilaydi, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy asoslari, siyosiy tizimini, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi. Konstitutsiya jamiyat huquqiy tizimining, butun qonunchilikning *o‘zagini*, yuridik *zaminini* tashkil etadi. *Joriy* qonunlarning barchasi konstitutsiya qoidalari va *tamoyillari* asosida hamda ularning ijrosi manfaati yo‘lida chiqariladi.

Qonunning oliy yuridik kuchga egaligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– qonunni uni qabul qilgan oily *vakillik* organidan boshqa hech kim o‘zgartira olmaydi, bekor qila olmaydi yoki yangisini o‘rnata olmaydi;

– boshqa barcha normativ-huquqiy aktlar qonunga qat’iy *muvofiq* holda qabul qilinadi va amalga oshiriladi;

– biron-bir *qonunosti* normativ-huquqiy akt, ya’ni, qonunga asoslangan hujjat qonunga zid bo’lsa, u qonunga muvofiq holatga keltiriladi yoki bekor qilinadi;

– qonunni qabul qilgan organdan boshqa hech kim uni qo‘shimcha tarzda tasdiqlashi va harakatdan to‘xtatib qo‘yishi mumkin emas.

(O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasidan)

5. Matnni o‘qib, mazmunini o‘zbek tilida ifodalang.

Во всех древних цивилизациях были созданы письменные своды законов. Это было большим шагом вперед по сравнению с первобытным обществом, где действовал обычай. Закон сам по себе вырос из обычного права, когда закрепился в представлениях членов одной общности. Он распространился во времени и стал моральной нормой. Понятия «закон» и «справедливость» отождествлялись, а задачи законодателей соответствовали, казалось бы, высшим проявлениям гуманизма.

Создавая законы, государство обеспечивало все слои населения, хотя и не в равной мере, определенными гарантиями. Законы упорядочивали отношения между людьми, возлагали на них ответственность за свои проступки, внушали, что у них есть права, реализацию которых можно требовать.

Государство стояло на стороне интересов высших слоев общества: самые жестокие наказания ждали тех, кто выступал против власти, укрывал беглых рабов и т. д. Сурово наказывались клеветники и лжесвидетели. Это означает, что функции государства заключались не только в подавлении и угнетении, – они были гораздо шире и сложнее.

6. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi kodekslari haqida ma’lumotlar topib, ularni jadval ko‘rinishida ifodalang.

Havo kodeksi, Xo‘jalik protsessual kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi,

Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, Soliq kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Bojxona kodeksi, Yer kodeksi, Oila kodeksi, Uy-joy kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, Budget kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi.

7. Matnni o'qing. Uni qisqartirib so'zlab bering.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi 2016-yil 20-yanvarda qabul qilingan. Ushbu kodeks 2016-yil 21-apreldan kuchga kirgan.

Yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi kuchga kirgandan boshlab O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Boj tarifi to'g'risida"gi Qonuni o'z kuchini yo'qotdi.

Bojxona kodeksining asosiy vazifasi bojxona ma'murchiligining barcha bosqichlari va darajalarida norma hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning bir xilda qo'llanilishini ta'minlashdan iborat.

Yangi bojxona kodeksi quyidagi asosiy tamoyillarga amal qiladi:

- iqtisodning ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olgan holda hamda global qo'shimcha qiymat yaratish zanjirlariga muvofiqlik bilan kirish maqsadida bojxonaning nazorat va boshqarish rolini kuchaytirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni nazorat qilishni yetakchi mamlakatlar tajribasidan va Jahon savdo tashkiloti tamoyillari hamda normalari asosida olib borish;
- mahalliy sanoatni qayta jihozlash maqsadida, olib kirilayotgan texnika va texnik uskunalarni uchun qulay sharoitlarni saqlab qolish;
- mahsuloti eksportga yo'naltirilayotgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni respublikada ishlab chiqarilmayotgan xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash uchun sharoit yaratish;
- mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, shu bilan birga, asossiz himoya qilmaslik uchun, tayyor mahsulotlarga tarif eskalatsiyasi (kengayishi) tamoyillarini qo'llash;

– bojxona to'lovlari stavkalarini tashqi iqtisodiy faoliyat kodlari bo'yicha tasniflash;

– aksiz soliqlarini va aksiz olinadigan tovarlar ro'yxatini O'zbekiston xalqaro shartnomalari normalariga muvofiqlashtirish.

8. Matnning mazmunini o'zbek tilida ifodalab bering.

В целях максимальной полезности кодекса он должен быть удобен в использовании. Объем кодексов может варьироваться: некоторые из них кратки, в то время как другие значительны по величине. Чем обстоятельнее кодекс, тем более специфичным он может быть. Удобство использования кодексов достигается за счет их структуры и содержания. Например, сначала можно представить краткий перечень принципов, на которых основывается кодекс, а затем привести расширенные положения в форме пожеланий или предписаний, которые и составят основу кодекса. После этого могут следовать комментарии, в которых поочередно разъясняется каждое из положений, а также, возможно, указываются особые обстоятельства в виде исследования конкретных случаев, могущих послужить полезными примерами. Однако принципы и их интерпретация в значительной мере определяются теми ценностями, которые для данной профессии признаны основополагающими. Если подобные ценности могут быть универсальными, то их интерпретация, а также практика могут различаться на местном или региональном уровне.

9. Quyidagi tushunchalar to'g'risida ma'lumotlar topib, ularni sharhlang.

Rim huquqi, Napoleon kodeksi, Dengiz qaroqchilari kodeksi, Djeday kodeksi, Axloq kodeksi.

10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi kodekslaridan biri haqida ma'lumot tayyorlang.

4-mavzu O‘ZBEKISTON BOJXONA XIZMATI



1-mashg‘ulot

1. Savollarga javob bering.

Mustaqil O‘zbekiston bojxonasi qachon va qaysi hujjatga asosan tashkil qilingan?

O‘zbekiston bojxonasini boshqargan rahbarlarni bilasizmi?

O‘zbekiston bojxonasining bayrog‘i va farqlash belgisi qachon qabul qilingan?

Bojxona xodimlarining kasb bayrami qachon nishonlanadi?

2. Berilgan tushunchalarni o‘z so‘zingiz bilan sharhlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bojxona operatsiyasi, bojxona protsedurasi, tovarlarning erkin muomalasi, yuk operatsiyalari, bojxona rasmiylashtiruvi, erkin bojxona zonasi, bojxona kuzatuv, bojxona ekspertizasi.

3. Gaplarni to‘ldiring.

Davlat bojxona xizmati organlari xodimlarining umumiy soni _____ni tashkil qiladi.

Davlat bojxona qo‘mitasida _____ nafar shahodatlangan xodim ishlaydi.

DBQning hududiy boshqarmalarida _____ nafar shahodatlangan xodim ishlaydi.

Bojxona postlari xodimlarining umumiy soni _____ni tashkil qiladi.

Ulardan tashqari, bojxona organlari tarkibiga _____ va _____ ham kiradi.

4. Jadvalni to‘ldiring. Undagi ma’lumotlarni sharhlang.

T\r	Sana	Hujjat nomi	Hujjat raqami
1	2006.09.03		
2	2011.10.08		
3	2014.14.07		
4	2016.20.01		
5	2017.11.10		
6	2018.12.04		
7	2018.18.10		

5. Quyidagi tuzilmalar nomlarini o‘zbek tilida yozing. Ularning vazifasi nimalardan iborat ekanligini ayting.

Управление по организации таможенного контроля, Управление таможенных платежей, Управление по борьбе с контрабандой и нарушениями таможенного законодательства, Управление дознания и административной практики, Управление мониторинга внешнеторговых операций и таможенной статистики, Управление по мониторингу и оценке рисков.

6. O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining bayrog‘ini tasvirlab bering.



7. DBQ Markaziy apparati tarkibiga kiruvchi boshqarmalardan birining vazifalari haqida yozma ma'lumot tayyorlang.

8. Quyidagi atamalarni o'zbek tilida yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Группа по таможенной экспертизе и классификации товаров, группа по военно-мобилизационной работе, чрезвычайным ситуациям и боевой подготовке, группа капитального строительства, группа по работе с обращениями, группа собственной безопасности, группа по связям с общественностью и средствами массовой информации.

9. Ommaviy axborot vositalaridan bojxona xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar haqida ma'lumotlarni topib yozing. Bunda quyidagi so'z birikmalaridan foydalaning:

Mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
bojxona ishining turli yo'nalishlarida faoliyat yuritish;
bojxona ishini yuritishning huquqiy asosi;
bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik;
tovarlar va transport vositalarining bojxona qiymatini belgilash tartibi;

tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash;
bojxona chegarasi orqali tovarlarning noqonuniy olib o'tilishi oldini olish;
bojxona nazoratining ilg'or usullarini qo'llash.

2-mashg'ulot

1. Quyidagi terminlarning o'zbekcha muqobillarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Меры экономической политики, таможенный комплекс; декларирование грузов; таможенные платежи; незаконное перемещение товаров, транспортных средств и грузов; применение таможенных режимов; объём внешнеторгового оборота; определение страны происхождения товара; внекатегорийный таможенный пост; пост первой/второй категории, приграничный таможенный комплекс, таможенный пост внешнеэкономической деятельности.

2. Jummalarni to'ldiring.

_____ ni undirish;
_____ chegarasi orqali _____ larning noqonuniy olib o'tilishiga qarshi kurashish;
_____ ning buzilishi haqidagi ishlarni ko'rib chiqish;
mamlakat _____ ni _____ dan himoya qilish;
_____ tovarlar _____ ning ehtiyojlarini ta'minlash.

3. Berilgan ta'riflarni o'zbek tiliga o'giring.

Приграничный таможенный пост – таможенный пост, расположенный непосредственно в пунктах пропуска через Государственную границу Республики Узбекистан или на первом

пункте остановки транспортных средств после пересечения государственной границы, осуществляющий таможенный контроль и оформление товаров и транспортных средств, а также ручной клади и багажа граждан;

Таможенный пост внешнеэкономической деятельности – таможенный пост, осуществляющий таможенный контроль и оформление товаров и транспортных средств на основе грузовых таможенных деклараций.

4. So‘z va iboralarning ma’nosini tushuntiring. Ulardan foydalanib bog‘lanishli matn tuzing.

Deklaratsiyalash, og‘zaki so‘rov, shaxsiy ko‘rik, qo‘l yuki, bagajni ro‘yxatga olish, naqd pul, qimmatbaho metall, vaqtincha saqlov, boj olinmaydigan savdo do‘koni.

5. Terminlarning ma’nosini tushuntiring.

Tovar almashinuvi, yuk tashish, bojxona yuk deklaratsiyasi, tovarlarni erkin muomalaga chiqarish, tovarlarni identifikatsiyalash, tovarlarni hisobga olish, bojxona rejimi, bojxona ombori, bojxona ekspertizasi, bojxona rasmiylashtiruv, tovar ishlab chiqarilgan mamlakat, tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi.

6. Quyida berilgan tushunchalarning o‘zbek tilidagi muqobillarini yozing. Qavs ichida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimlarini keltiring. Ushbu tushunchalar ishtirokida gaplar tuzing.

Таможенный персонал (_____),
необходимый атрибут (_____),
конфиденциальные (_____) сведения,
ключевая (_____) роль,
негативное (_____) мнение,
проявлять осмотрительность (_____),

кого-либо *извещать* (_____),
кого-либо *уведомить* (_____).

7. Quyidagi bojxona postlarining vazifalari haqida gapirib bering:

- avto,
- temir yo‘l,
- aeroport,
- daryo.

8. Savollardan foydalanib, suhbat matnini tuzing va uni inssenirovka qiling.

Qanday turdagi uskunalarni olib ketyapsiz?

Zavod sinovlarining sertifikatini ko‘rsam bo‘ladimi?

Yukni jo‘natuvchi va qabul qiluvchining nomlari hujjatlarda ko‘rsatilganmi?

Siz yukni dastlabki ortishda qatnashdingizmi?

Hujjatlarni rasmiylashtirish bo‘yicha talablar bajarildimi?

Transport hujjatlari, schyot-faktura va sug‘urta polisini ko‘rsam bo‘ladimi?

Avtomashina qaysi firmaga tegishli?

Marhamat, o‘z marshrutingiz, shuningdek yukni jo‘natuvchi va qabul qiluvchilar haqida ma’lumot bersangiz.

Yuk jo‘natish hujjatlari paketi to‘liq bo‘lishi kerak. Bu bojxona ko‘rigidan o‘tishda amalga oshiriladigan rasmiyatchilik talablaridan biri.

9. So‘z birikmalaridan foydalanib bog‘lanishli matn tuzing.

Yuk kuzatuv hujjatlari, yukni qabul qiluvchi, identifikatsiya vositalari, o‘rtacha og‘irlik, tafovutlarni aniqlash, tashqi shikastlar, qadoqlash, o‘ram, vakolatli shaxs.

3-mashg'ulot

1. Savollarga javob bering.

O'zbekistonda bojxona xizmati uchun mutaxassislar qayerda tayyorlanadi?

Bojxona xodimi qanday bilimlarga ega bo'lishi kerak?

Bojxona institutining vazifalari nimadan iborat?

Bojxona institutida qaysi yo'nalishlar mavjud?

Dunyoda bojxona mutaxassislarini tayyorlaydigan qanday o'quv muassasalari mavjud?

2. Berilgan ta'riflarni o'zbek tilida ifodalang.

Курсант – гражданин, состоящий на военной службе, принятый в военное учебное заведение или учащийся в учебном формировании.

Слушатель – должность, занимаемая военнослужащим, обучающимся в высшем военно-учебном заведении и имеющим воинское звание офицера.

3. Jadvalni to'ldiring. Undagi ma'lumotlarni sharhlang.

T\r	Sana	Hujjat nomi	Hujjat raqami
1	1996.24.10		
2	1998.13.07		
3	2001.10.01		
4	2003.22.05		
5	2018.02.11		

4. Qavs ichidagi so'zlarni tarjima qilib, berilgan jummalarni to'ldiring. Ular qaysi manbadan olinganligini ayting.

bojxona organlari xodimlarining (знания и навыки)ni takomillashtirish;

yuksak (профессиональное мастерство)ni rivojlantirish;

kursantlarda (аналитическое мышление), (новые знания)ni (самостоятельно) egallash va ularni (практика)da qo'llash (навык)ni rivojlantirish;

o'qitishning (современный) innovatsion (формы и методы)ni qo'llash;

bojxona faoliyatini (правовой) va (информационно-технический) ta'minlash;

yetakchi xorijiy (образовательные учреждения) bilan (сотрудничество)ni rivojlantirish;

kursantlarni ma'naviy-axloqiy (воспитание), (боевой и физический) tayyorgarligi, (правовая культура)ni va (правовое сознание)ni oshirish.

5. Quyidagi tushunchalarga o'z so'zingiz bilan ta'rif bering.

Ta'lim muassasasi, ichki tartib, tajribali mutaxassis, baholash mezonlari, o'quv fanlari, kinologiya xizmati, nazariy tayyorgarlik, amaliy tayyorgarlik, xalqaro amaliyot, masofaviy ta'lim.

6. Berilgan terminlardan foydalanib, Bojxona instituti faoliyati haqida matn tuzing.

Bojxona ishi, yurisprudensiya, fakultet, kafedra, magistratura, bojxona menejmenti, boshlang'ich tayyorgarlik, malaka oshirish, maxsus fanlar, jismoniy tayyorgarlik, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, lokal tarmoq, kimyoviy laboratoriya, interfaol ta'lim, kriminalistika, trenajor zali, o'quv amaliyoti.

7. Bojxona institutiga o'qishga kirish maqsadida murojaat qilgan abituriyent bilan suhbat matnini tuzing.

8. Quyidagi matnni davom ettiring.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Milliy kinologiya markazi faoliyati Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti kabi qator xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgan. 2008-yilda markazga Jahon bojxona tashkiloti tomonidan Mintaqaviy kinologiya markazi maqomi berilgan.

9. Tanlagan kasbingiz mohiyati, unga munosabatingiz haqida esse yozing. Uni quyidagi reja bo‘yicha yoriting:

- 1) sohaning qisqacha tavsifi;
- 2) kasb tarixi;
- 3) kasbning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati;
- 4) kasbning o‘ziga xos xususiyatlari;
- 5) kasbning qiyin jihatlari;
- 6) sohaning kelajagi.

5-mavzu BOJXONA XODIMLARINING KASB ETIKASI VA NUTQ MADANIYATI



1-mashg'ulot

1. Savollarga javob bering.

Etika fani nimani o'rganadi?

Kasb etikasi deganda nimani tushunasiz?

Bojxona xodimining kasb odobi nimalarda ko'rinadi?

Bojxona xodimi xizmatda o'zini qanday tutishi kerak?

2. Matnni o'qing. Undagi ma'lumotlarni kengaytirib so'zlab bering.

1993-yilda Jahon bojxona tashkiloti tomonidan bojxonachilar halloligi to'g'risidagi Arusha deklaratsiyasi qabul qilingan va 2003-yilda qayta ko'rib chiqilgan. Mazkur hujjatda korrupsiyaga qarshi strategiyaning o'nta asosiy qoidasi aks ettirilgan.

Ushbu hujjatning asosiy go'yasi: bojxonachi – davlat hokimiyatining vakili hisoblanadi. U bojxona organining o'bro'si va ravnaqi uchun jonkuyar bo'lishi hamda o'z harakatlari bilan uni mustahkamlashi lozim.

3. Matnni o‘qib, uning mazmuni bo‘yicha tezislar tuzing.

Kasb etikasi – kasb odobi to‘g‘risidagi ta‘lim bo‘lib, u ma‘lum kasbning tarixiy shakllangan axloq-odob qoidalari va me‘yorlari tizimidir.

Kasb – mehnat faoliyatining ma‘lum bir turi bo‘lib, ta‘lim olish va davomli amaliyot natijasida hosil bo‘ladigan zarur bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi.

Kasb etikasi quyidagilarni o‘rganadi:

- mehnat jamoalari va alohida har bir xodim o‘rtasidagi munosabatlar;
- mutaxassis shaxsining professional burchni mukammal ado etishini ta‘minlaydigan axloqiy sifatlari;
- kasbiy jamoalar ichidagi o‘zaro munosabatlar hamda ushbu kasbga xos bo‘lgan o‘ziga xos axloqiy me‘yorlar;
- kasbiy tarbiyaning xususiyatlari.

Bugungi jamiyatda individning shaxsiy sifatlari uning xizmat tavsifnomasi, mehnatga munosabati, kasbiy layoqatidan boshlanadi. Bularning barchasi kasbiy etikani tashkil etadigan masalalarning dolzarbligini belgilaydi. Haqiqiy professionallik burch, halollik, o‘ziga va kasbdoshlariga nisbatan talabchanlik, o‘z mehnati natijalari uchun mas‘ullik kabilarga tayanadi.

Kasbiy faoliyatning ba‘zi turlariga jamiyat yuqori axloqiy talablar qo‘yadi. Insonlar hayoti, moddiy boyliklarni boshqaradigan sohalar, shuningdek xizmat ko‘rsatish, transport, boshqaruv, sog‘liqni saqlash, ta‘lim-tarbiya va boshqa sohalar xodimlarining axloqiy sifatlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Etikaning kasbga oid turlari – kasbiy faoliyatning o‘ziga xos jihatlari bo‘lib, insonga uning hayoti va jamiyatdagi faoliyatining u yoki bu sharoitlarida bevosita yo‘naltirilgandir. Kasbiy etika turlarini o‘rganish axloqiy munosabatlarning xilma-xilligini aks ettiradi. Har bir kasb uchun u yoki bu axloqiy me‘yorlar alohida mohiyatga ega.

Kasb etikasi, odatda, insonlar va insoniyatning hayoti hamda taqdiriga ta‘sir ko‘rsatadigan kasbiy faoliyatlarga taalluqlidir. Shu munosabat bilan kasb etikasining an‘anaviy turlari, xususan, pedagog

etikasi, shifokor etikasi, yurist etikasi, olim etikasi bilan bir qatorda, nisbatan keyin paydo bo‘lgan injener etikasi, jurnalist etikasi, bioetika va ko‘plab boshqa turlari mavjuddir.

4. Taniqli rus yozuvchisi Anton Chexovning mashhur so‘zlarini sharhlab bering: “Insonning hamma narsasi: chehrasi ham, kiyim-boshi ham, qalbi ham, fikrlari ham go‘zal bo‘lmog‘i lozim”.

5. Ish joyida mobil aloqadan foydalanish madaniyati haqidagi fikrlarga o‘z munosabatingizni bildiring. Mavzuni davom ettiring.

Afsuski, mobil aloqadan foydalanish madaniyatidan hamma ham xabardor emas, mobil telefon g‘ayritabiiy tarzda har qanday vaziyatning xo‘jayiniga aylanib qolmoqda. Mobil telefon jiringlagan paytda har qanday suhbat bo‘linadi, diqqat chalg‘iydi, fikr uzviyligi buziladi. Inson, vaziyat emas, telefon muhim bo‘lib bormoqda. Bunga munosabatingiz qanday?

6. Quyidagi fikrni kengaytirgan holda esse yozing.

“Aniq bilmasang, birov haqida yomon gap gapirma. Agar bilsang ham, o‘zingdan so‘ra: men nima uchun buni gapiryapman?”.

(Jorj Sand, fransuz yozuvchisi.)

7. Berilgan tushunchalarni lug‘at yordamida sharhlang.

Insof, ma‘naviyat, qonunga rioya qilish, mehnatga munosabat, xizmatga oid ma‘lumotlar, sovg‘a, axloqiy qarashlar, korrupsiya.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 16-martdagi 62-qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari”ni o‘rganib chiqing va konspekt tuzing.

9. Mashhurlarning quyida berilgan fikrlarini o‘zbek tilida sharhlang. Misollar keltiring.

«Один решительный, предприимчивый, бдительный, мужественный и отважный человек предпочтительнее тысячи безынициативных и безразличных людей». (*Амир Темура*.)

«Пусть дела твои будут такими, какими ты хотел бы их вспомнить на склоне жизни». (*Марк Аврелий*.)

«Суть не в годах, а в делах – их-то и надо считать». (*Овидий*.)

«Следует знать, что рано или поздно можно завоевать царство вещей, но проиграть душу ...» (*Ю. Бондарев*.)

«... Никогда не следует забывать, что на диаграмме, отмечающей рост человека, параллельно материальной линии идёт вторая – духовная, интеллектуальная линия. Жизнь всегда мстит, когда лишь первой из линий отдают предпочтение...» (*Э.Межелайтис*.)

«Всегда поступайте правильно. Это порадует одних и удивит остальных». (*Марк Твен*.)

10. Quyidagi matn qaysi qonundan olinganligini ayting. Ushbu qonun haqida ma’lumot tayyorlang.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

11. Quyidagi so‘z birikmalarining o‘zbek tilidagi muqobillarini aniqlang. Ular ishtirokida bojxona xodimlarining axloq-odob qoidalari mazmunini aks ettiring.

Высокая сознательность; служебный долг; служебная дисциплина; присяга сотрудника таможенного органа; защита прав, свобод и законных интересов граждан; вежливость, скромность и сдержанность в общении с гражданами; своевременное, бескорыстное и законное рассмотрение обращений физических и юридических лиц; избежание конфликтных ситуаций; быть доброжелательными, корректными и внимательными; проявлять терпимость и уважение в общении с гражданами и сослуживцами.

12. Jadvalni to‘ldiring. Fikringizni asoslang.

Men qanday bo‘lishim kerak			Hozir men qandayman		
Muloqotda	Ishda (o‘qishda)	Xatti- harakatimda	Muloqot- da	Ishda (o‘qish- da)	Xatti- haraka- timda
Muloyim	Mas’uliyatli	Adolatli			
Samimiy	Tartibli	Prinsipial			
Og‘ir-bosiq	Tashabbuskor	O‘ziga nisbatan tanqidiy			
Yoqimli	Intizomli	Halol			
Sabrli	Mustaqil	Jasur			
Odobli	Mulohazali	Ochiqko‘ngil			
Sezgir	Mehnatsevar	Rahmdil			
Xayrixoh	Intiluvchan	Saxiy			

13. Quyidagi savollar vositasida bojxona xodimidan olinadigan intervyu matnini tuzing.



Kasbingizning mohiyati nimada?

Sizni bu kasb nimasi bilan jalb qildi?

“Mas’uliyatni his qilish” va “burchni his qilish”
tushunchalarining farqi nimada?

Kasbni tanlaganingiz sababi – qo‘yilgan maqsadmi yoki shu sohadagi qobiliyatlarmi?

“Kasbni bir marta va bir umrga tanlaydilar” degan fikrga munosabatingiz qanday?

Kasbingiz sohasida muvaffaqiyatga erishgan xodimlar haqida gapirib bering.

14. Muammoli topshiriq.

Quyidagi vaziyatlarni tasavvur qiling. Shu vaziyatlarda qanday yo‘l tutishingizni ayting va shunga mos dialog matnini tuzing.

Agar –sa, siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?

- yo‘l tirbandligi sabab ishga kechikayotgan bo‘lsangiz;
- hamkasbingiz xizmat jarayonida o‘zini yomon his qilsa;
- ish bo‘yicha siz bilan muloqot qilayotgan shaxs (fuqaro) o‘zini g‘ayritabiiy tarzda tutayotgan bo‘lsa;
- mas’uliyatli va tezkor vazifani bajarishingiz kerak, biroq jismonan juda charchagan bo‘lsangiz;
- hamkasbingiz (sherigingiz) fuqaro (yo‘lovchi)ga qo‘pol muomala qilishni boshlasa;

- rahbaringiz to‘satdan betob bo‘lib qolsa va navbatdagi yig‘ilishni o‘tkazish sizga topshirilsa;
- ish bo‘yicha sizga muayyan savol yoki muammo bilan murojaat qilishsa, biroq sizning bu borada tajribangiz yo‘q bo‘lsa;
- xizmat yig‘ilishida sizning faoliyatingiz tanqid qilinsa, biroq siz bu tanqidni o‘rinsiz deb hisoblasangiz;
- ish yuzasidan siz bilan muloqot qilayotgan shaxs (fuqaro, yo‘lovchi) sizga nisbatan qo‘pol ohangda muomala qilsa.

2-mashg‘ulot

1. Hikmatli so‘zlarni sharhlang.

“Agar achchiq so‘z iz qoldirganda edi, biz hammamiz tasqara bo‘lib yurardik”. (*V. Shekspir.*)

“Sizni yaxshi bilmay turib, siz haqingizda yomon gapiradigan odamdan xafa bo‘lmang: uning tuhmatlari sizga emas, o‘zining tasavvurida tug‘ilgan sharpaga taalluqlidir.” (*J. Labruyer.*)

“Kaltafahm odamlar odatda aqllariga sig‘magan narsalarning hammasini qoralaydilar.” (*F. Laroshfuko.*)

“Ko‘p bilgan odam xato qilmaslik uchun o‘z fikrini ehtiyotlik bilan bayon etishni biladi. Yuzaki bilgan o‘zbilarmon esa hamma narsa haqida g‘ayritabiiy bir jasorat bilan valaqlayveradi.” (*L.N. Tolstoy.*)

2. Berilgan tushunchalarning ma‘nosini lug‘atdan toping va tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Notiq, voiz, kamolot, ta‘limot, muomala, mantiq, did, hayo, odob.

3. Matnni o‘qib, undagi asosiy fikrni ifodalab bering.

So‘z – qurol, maqsad esa ko‘ngil, ko‘ngil o‘rtanmasa, ehtiroslarga to‘lmasa, so‘zda ta‘sir bo‘lmaydi.

(Jaloliddin Rumiy.)

Nutq madaniyati inson tafakkurining mahsuli bo'lib, jamiyat madaniy hayotining va millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Nutq madaniyati kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashdan iboratdir.

Tarixidan ma'lumki, nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilion va Hindistonda mavjud bo'lgan. Bu davrda hokimiyatdagi davlatni boshqarish, savdo-sotiq va sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Holbuki, u paytda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqega ega. Sharqda, shu jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya'ni va'xonlik, Qur'oni Karimni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinli foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtayi nazardan qaralsa, "nutq odobi", "muomala madaniyati" tushunchalari juda qadimdan olimlar va ziyolilarning diqqatini tortgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalariga, umuman, nutqqa jiddiy e'tibor berishga da'vat etganlar.

Til ham, fe'l-atvor ham insonga qon bilan kirib, uning butun jismu joniga taralib ketuvchi an'analar ekan, bularga e'tibor bermaslik hamisha katta-katta muammolarni keltirib chiqaradi. Qolaversa, gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiylikiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlovchining, ya'ni notiqning tinglovchi bilan fikran to'qnashuvlarida, o'zi boshqalarning taqdiri uchun kurashishida, nihoyat muddaoga erishishda notiq uchun so'z asosiy qurollardan biridir. So'z – tafakkur xazinasining ko'zgusi bo'lib, notiq uchun faqat

fikrni ifodalash vositasigina bo‘lib qolmay, balki mavzuni ifodalaydigan asosiy omil hamdir.

So‘zning ma‘nosi qanchalik aniq va o‘tkir bo‘lsa, shunchalik ta‘sirchan bo‘lib, ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishni osonlashtiradi. Shuning uchun ham so‘zlovchi notiqdan so‘zga katta mas‘uliyat va nozik did bilan qarash talab etiladi.

Nutq odobi borasida so‘z yuritilganda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, huda-behuda gaplarga berilmaslik, keksalar va ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirishga e‘tibor qaratiladi.

Bugungi kunda nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biridir. Til ham, nutq ham kishilar nutqiy faoliyatining foydali, ta‘sirchan, o‘tkir bo‘lishi uchun kurashadi, insonning nutqiy madaniyati, uning nutqiy holatini o‘stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notqlik ham nutqiy go‘zallik, nutqiy mantiq qoidalaridan oziqlangan holda ish ko‘radi.

Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta‘sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta‘sirchan so‘zlay bilish ham san‘at.

(fikir.uz saytidan.)

4. Quyidagi ma‘lumotni o‘zbek tilida so‘zlab bering.

Современный литературный язык существует в двух формах: устной и письменной.

Главная характеристика устной (разговорно-бытовой) формы – спонтанность. Кроме этого, отмечаются следующие признаки: обилие просторечной лексики и фразеологии; употребление простых и неполных предложений; редкое использование причастных и деепричастных оборотов; диалогическая форма; широкое использование паралингвистических средств: мимики, жестов, пауз, интонации, повторов.

Письменную (нормированную) форму отличают, прежде всего, предварительное обдумывание и редакторская обработка. Для письменной речи характерно следующее: сложная система графики, орфографии и пунктуации; строгое соблюдение литературных норм; особый отбор лексики, фразеологии; употребление сложных и осложненных предложений; особая роль порядка слов, монологическая форма.

5. Alisher Navoiyning quyidagi hikmatlarini sharhlang va hayotdan misollar keltiring.

Odam tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir.
Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi.

Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.
Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa — tilning ofatidir.

Tilini tiyolgan odam — donishmand oqil;
So'zga erk bergan odam — beandisha va pastkash.

Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi;
Til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi.

6. Quyida berilgan so'z va jummalarga munosabat bildiring.

“shu...”, “shunday qilib...”, “haligi”, “qaysiki”, “nimaydi”, “nima desam ekan...”, “o'sha”, “umuman olganda”, “aytaylik...”, misol uchun”, “deylik”, “ya'ni, masalan”, “anaqa”, “demakki”, “bilasizmi...”, “bor-u...”, “xo'sh”.

7. Quyida berilgan fikrlarni davom ettirib, kichik matnlar tuzing.

- Nutq – insonning eng muhim xususiyatlaridan biri.
- Bizning atrofdagilarda qoldiradigan taassurotimiz odamlar bilan qanday muomala qilishimizga bog'liq.

➤ Inson nutqi odamlarni unga yaqinlashtirish, yoki, aksincha, undan bezdirish xususiyatiga ega.

➤ Nutq suhbatdoshimizning kayfiyatiga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin.

8. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Unga sarlavha qo'ying.

Культура речи – это, прежде всего, духовная культура человека и уровень его общего развития, как личности; она свидетельствует о ценности духовного наследия и культурных достояний человечества. Можно сказать, что культура речи – это выражение любви и уважения к родному языку, который естественным образом связан с историей родной страны и ее духовным богатством.

Для того чтобы речь была по-настоящему культурной, она должна быть не только правильной, но и богатой, что во многом зависит от лексических знаний человека. Для этого необходимо постоянно пополнять свой словарный запас новыми словами, читать произведения разных стилистических и тематических направлений.

Важно выделять для себя ключевые слова той или иной тематики, запоминать удачные и необычные высказывания и фразеологические обороты. Но для того, чтобы наиболее верно использовать запас слов и выражений, необходимо постоянно развивать и устную речь, и письменную.

При помощи этого меняется направление собственных мыслей, которые впоследствии формируются в слова. Необходимо стараться находить общий язык с разными людьми и выделять для себя разные темы для беседы. Ведь понятие культуры речи связано не только с лингвистическими способностями, но и с общей культурой личности, с ее эстетическим и психологическим восприятием окружающего мира и людей.

Культура речи развивает в человеке более высокий уровень духовности и благородства, и это понятие – условие не только для образованного и высокоразвитого человека, но и необходимость для любого культурного и внимательного человека. Ведь человеческая речь – наиболее часто используемый и остро необходимый способ выражения себя для человека, и делая свою речь более богатой и интересной, человек учиться выражать себя и свое мнение более полноценно.

Для общения с другими людьми крайне важно поддерживать культуру речи, которая в данном случае заключается в вежливости, внимательности, в умении поддержать любой разговор и поддержать собеседника. Именно культура речи делает общение более легким и свободным, ведь тогда появляется возможность высказать свое мнение, и при этом никого не обидеть и не задеть.

В красивых, грамотно подобранных словах содержится сила, мощнее, чем любая физическая сила, и эта особенность языка проверена временем.

Уровень культуры речи частично отображает образ жизни человека, и в большей мере – образ жизни целых народов. И в наших силах и возможностях верно использовать духовное и культурное наследие речи, которая, несмотря ни на что, продолжает развиваться и обогащаться.

9. Quyidagi hikmatli soʻzlardan birini sarlavha sifatida tanlab, esse yozing.

“Nutq – qalbning timsoli” (*Publiliy Sir, Qadimgi Rim shoiri*).

“Odamning qimmatini – soʻzida” (*oʻzbek maqoli*).

“Insonni u bilan doimo muloqotda boʻladigan odamlarga qarab bilganimizdek, unga muomalasiga qarab baho berishimiz mumkin” (*Djonatan Svift, ingliz yozuvchisi*).

“Katta daryo ohista oqar, aqlli odam ovozini balandlatmas” (*Sharq hikmati*).

10. Matnni davom ettiring. Unga sarlavha qo‘ying.

Rahbarning kasb notiqligi bir qator ichki psixologik maqsad-muddaolarga intilish natijasida shakllanadigan xususiyatlarga ega.

Notiq nutq orqali erishish mumkin bo‘lgan (erishishni istagan) maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yar ekan, rahbarning ham o‘z maqsadlari doirasi mavjud.

Bu – uning nutq orqali erishmoqchi bo‘lgan natija, ehtiyoj sezgan narsalar – o‘z oldiga qo‘ygan va hal etmoqchi bo‘lgan muammolaridir.

Bu muammoni qay darajada hal eta olishi uning notiqlik mahoratiga bog‘liq.

11. Bojxona xodimning nutq madaniyatiga qo‘yiladigan quyidagi talablarga munosabat bildiring. Ularga yana qanday talablarni qo‘shgan bo‘lar edingiz? Misollar keltiring.

Bojxona xodimi xizmat vaqtida:

- qisqa, aniq va o‘z o‘rnida so‘zlaydi;
- suhbatdoshini tinglay oladi va tushunadi, uning nuqtayi nazarini hurmat qiladi;
- suhbatdoshiga o‘z nuqtayi nazarini xotirjamlik va sabr bilan tushuntiradi;
- muloqot jarayonida ovozini balandlatmaydi, suhbatdoshining gapini bo‘lib, diqqatni o‘ziga qaratmaydi;
- o‘zining yutuqlari haqida maqtanmaydi, o‘zi haqida gapiravermaydi, kamtar bo‘ladi;
- har qanday muloqot jarayonida kerakli so‘zlarni topib ishlatadi;
- suhbat paytida qo‘l harakatlariga zo‘r bermaydi, diqqatni so‘z bilan, ohang bilan tortadi.

12. Bojxona xodimining nutq madaniyatini aks ettiruvchi suhbat matnini tuzing.

6-mavzu BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANISHI



1. Berilgan jumlar ishtirokida gaplar tuzing.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilish;
bojxona rasmiylashtiruv va bojxona nazorati jarayonlarini
avtomatlashtirish;

tovarlar bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash
texnologiyalari;

ma’lumotlar xavfsizligi va ularni himoya qilish tizimini yaratish;

real vaqt rejimi;

yagona axborot tizimi;

elektron nusxa;

elektron raqamli imzo;

elektron deklaratsiya.

2. Matnni o‘qib, mazmunini gapirib bering. Ajratib ko‘rsatilgan terminlarning mazmunini tushuntiring.

Bugungi kunda bojxona ishini jahon andozalari darajasiga olib
chiqish, bu borada bojxona nazoratining yangi zamonaviy shakl va

uslublarini, jumladan avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tatbiq etish hisobiga *bojxona ishi samaradorligini* yanada oshirishni taqozo etilmoqda.

Butun dunyoda tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvi va nazoratidan o'tkazish uchun sarflangan vaqt bojxona organlari faoliyati samaradorligini aniqlashning asosiy mezonini bo'lib hisoblanadi. Shu sababli bojxona rasmiylashtiruvi va nazoratini avtomatlashtirish bojxona organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Boshqacha aytganda, ko'p vaqt va qo'l mehnati talab etadigan *nazorat jarayonlarini* kompyuter texnologiyasi zimmasiga yuklatishdir.

Ma'lumki, bojxona chegaralarini kesib o'tuvchi *tovar va transport vositalarining* bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonlari juda ko'p qo'l mehnatini, qog'oz sarfini va eng muhimi – *rasmiylashtirilgan hujjatlarning* Davlat bojxona qo'mitasiga va hududiy boshqarmalarga nazorat uchun yetkazib berilishida uzoq vaqtni talab etadi. Bu esa bojxona nazorati samaradorligini pasaytiradi. Ushbu jarayonlarni *kompyuter texnologiyalari* yordamida avtomatlashtirish esa tovar va transport vositalarining harakatini va ularning bojxona rasmiylashtiruvi natijalarini *real vaqt* davomida nazorat qilish va zarur hollarda tezkor choralar ko'rish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalarining asosiy vazifasi – bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida bojxona tizimidagi ma'lumotlarni boshqarish.

Bojxona ishida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi elektron deklaratsiyalash texnologiyasini joriy etishdir.

Elektron deklaratsiyalashning joriy etilishi bojxona protseduralarini soddalashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Elektron deklaratsiyalash nafaqat TIF qatnashchilarining vaqtini tejash, balki bojxona rasmiylashtiruvi jarayonini oshkora o'tkazish imkonini beradi hamda turli subyektiv omillarning ta'siriga tushish holatlarini kamaytiradi.

Bugungi kunda barcha bojxona komplekslari va postlari yagona axborot uzatish tizimiga birlashtirilgan.

Bojxona protseduralarini avtomatlashtirish natijasida ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt sezilarli darajada qisqarishiga erishilib, tovarlarni bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdan o'tkazish ishlari tezlashdi hamda tovarlarning bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi tezlashishiga erishildi.

3. Berilgan jummalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Норма определения эффективности деятельности таможенных органов;

автоматизация процессов таможенного оформления и таможенного контроля;

таможенное оформление в режиме реального времени;

создание единой системы передачи информации ГТК;

формирование единой автоматизированной информационной системы ГТК;

создание системы безопасности сведений и их защиты.

4. Savollarga javob yozing.

1. Bojxona organlari faoliyatining samaradorligini aniqlashning asosiy mezonlari nima?

2. Tovarlar va transport vositalarining harakatini qanday nazorat qilish mumkin?

3. Axborot texnologiyalarining asosiy vazifasi nimadan iborat?

4. Elektron deklaratsiyalashni tatbiq qilishdan maqsad nima?

5. Quyidagi tezislarni o'zbek tiliga o'giring.

Большое внимание в мире сейчас уделяется развитию новых технологий таможенного оформления, способствующих упрощению таможенных формальностей и ускорению

товарооборота (предварительное информирование, электронное декларирование, в том числе удалённый выпуск товаров с использованием сети Интернет).

Электронное декларирование является важным элементом внедрения информационных технологий в систему таможенной службы, главным преимуществом которого является безбумажная технология, позволяющая упростить и ускорить процесс совершения таможенных операций. Применение электронного декларирования приведёт к повышению собираемости таможенных платежей, снижению количества нарушений, допускаемых как импортёрами товаров, так и должностными лицами таможенных органов.

Таможенная служба как инструмент регулирования внешнеэкономической деятельности призвана эффективно реагировать на современные потребности государства и общества в модернизации экономики, защите национальных интересов, должна активно способствовать интеграционным процессам, совершенствовать применяемые таможенные процедуры. Решение этих задач возможно лишь в условиях бесперебойного функционирования связи, телекоммуникационного оборудования, качественного прикладного программного обеспечения.

Очередной ступенью в развитии электронного декларирования стали мероприятия по вводу в эксплуатацию информационных технологий предоставления сведений в электронной форме с использованием сети Интернет. Электронное декларирование не только сокращает сроки выпуска товаров, но и позволяет сделать процесс таможенного оформления максимально прозрачным.

6. Berilgan jumjalarning mazmunini izohlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Tashqi savdo operatsiyalari, elektron raqamli imzo, bojxona yuk deklaratsiyasi, bojxona qiymati, solishtirma dalolatnoma, bojxona

omborlari reyestri, Yagona davlat interaktiv xizmatlari portal, DBQ veb-sayti.

7. Quyida nomlari berilgan dasturlar haqidagi ma'lumotlarni topib, ularga annotatsiyalar yozing.

“Avto”, “Temir yo‘l”, “Bojxona ombori”, “Bojxona to‘lovlari”, “Bojxona ko‘rigi dalolatnomasi”, “Tovarlarning bojxona ekspertizasi”, “Yo‘lovchi bojxona deklaratsiyalari”.

8. Bojxona organlarining interaktiv xizmatlarini quyidagi jadvalda aks ettiring.

Jismoniy shaxslar uchun elektron xizmatlar	
Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun elektron xizmatlar	

9. Matnning mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering.

Использование информационных систем и технологий в деятельности таможенных органов позволяет решать много задач, связанных с эффективным осуществлением таможенного администрирования. Среди таких задач можно выделить следующие:

- упрощение и ускорение таможенного оформления и таможенного контроля, в том числе за счет использования электронной формы декларирования, внедрения экспериментальных технологий таможенного оформления;
- использование системы управления рисками;
- накопление информации об участниках внешнеэкономической деятельности и иных лицах, если такое накопление предусмотрено в порядке, установленном

законодательством;

– ведение баз данных, реестров лиц, осуществляющих деятельность в области таможенного дела;

– оперативное осуществление информационного обмена с иными органами государственной власти и зарубежными органами в порядке и на условиях, установленных законодательством.

В таможенных органах введена система электронной обработки документов и обмена документами между подразделениями (внутренними получателями).

10. Quyidagi elektron xizmatlarga annotatsiyalar yozing.

- Bojxona kalkulatori,
- “Yagona oyna” elektron axborot tizimi,
- bojxona to‘lovlari bo‘yicha solishtiruv dalolatnomalarini olish,
- yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasini to‘ldirish va chop etish,
- pochmani qabul qiluvchi haqidagi ma’lumotlarni bojxona organlariga taqdim etish,
- tadbirkorlar tomonidan bojxona organlariga elektron bojxona yuk deklaratsiyalarini taqdim etish,
- chet el tovarlarining harakatiga bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minlash haqida xabarnoma berish.

11. DBQ YAAT dasturlaridan ikkitasi haqida batafsil ma’lumot tayyorlang va gapirib bering.

12. Maqolaga o‘zbek tilida taqriz yozing.

Из истории развития информационных таможенных технологий

Стремление к упорядочению обмена, унификации денежных знаков, созданию логической символики и математического инструментария позволило человеку придумать первые таможенные тарифы, организовать внутреннее и внешнее таможенное пространство, наполнить товары логической информацией и экономической оценкой. Одной из древнейших «информационных таможенных систем» является таможенный закон в виде памятника, обнаруженного в XIX веке в Пальмире (Сирия). Пальмирский пошлинный тариф 137 года до нашей эры весом около 15 тонн, найденный русским археологом С.С. Абамелек-Лазаревым и подаренный турецким султаном российскому послу, хранится с 1904 года в Государственном Эрмитаже в Санкт-Петербурге и является самым ранним и наиболее полным сводом пошлин и правил их взимания, которыми располагает нынешняя таможенная наука.

Со временем на смену законодательным документам, представленным в виде монументальных «информационных систем», приходят бумажные носители (на основе книгопечатания), появляются технологические процессы таможенного оформления и таможенного контроля. Появляются первые списки товаров, сгруппированные по методикам, характерным для каждой страны. Это видно на примере Таможенной Белозерской грамоты от 21 мая 1497 года, где дается представление о номенклатуре товаров, которыми торговали на рынках. В этом документе впервые отражена ставка пошлины на товары. В конце XVI века усложняется процесс информационного наполнения товара, в интересах наблюдения за внешнеторговыми потоками создается номенклатура товаров с классификацией их по категориям. Появление и развитие в 80-х годов XIX века теории научного управления дало толчок к систематизации вопросов управления в таможенном деле на базе анализа имеющейся информации о внешнеэкономических процессах.

Так уже в начале 80-х годов XX века в наиболее развитых странах мира таможенные службы были вынуждены ускоренными

темпами осуществлять переход от индивидуальных вычислительных средств и локальных сетей к созданию корпоративных информационных систем управления. Например, одной из реализованных в 1984 году автоматизированных систем в США является автоматизированная коммерческая система таможи ACS (Automated Commercial System). ACS – очень большая и сложная система с более чем 380 млн записей в информационной базе, которая обслуживает приблизительно 1200 торговых пользователей, 4 другие страны (кроме США), 40 других агентств, 10 000 как в интерактивном, так и в пакетном режиме. Подкомпоненты ACS интегрируются на уровне единых баз данных. Файлы системы ежемесячно возрастают на более чем 500 тыс. записей, и 3 млн уже существующих записей требуют ежедневной модификации.

В конце 80-х годов во Франции была разработана и использована в таможенной службе информационная система SOFIX. Эта система реализует следующие функциональные принципы таможи: ведение манифестов (общего документа на товар, перемещаемый одним транспортным средством); декларирование товаров на импорт и экспорт; заведение информации, необходимой для составления декларации; управление таможенными складами; автоматический подсчет сборов и пошлин; ведение товарной номенклатуры; ведение тарифного регулирования для каждой позиции товарной номенклатуры; ведение и актуализация таблиц нормативно-справочной информации.

В настоящее время таможи США и Канады получают и обрабатывают электронным способом соответственно 95 и 85% деклараций, а в Австралии и на Филиппинах 98% операций таможенного оформления и контроля осуществляется в безбумажной форме.

(П. Афонин.)

1-mashg'ulot

1. Savollarga javob bering.

Bojxona nazoratining maqsadi nimadan iborat?

Bojxona nazoratining qanday shakllari mavjud?

Xavfni boshqarish tizimi deganda nimani tushunasiz?

2. Berilgan so'zlardan so'z birikmalari hosil qiling. Ularning bojxona ishining qaysi sohasiga tegishli ekanligini ayting.

Bojxona + statistika + yuritmoq, bojxona + hududi + tashqari + qayta + ishlamoq, boj + olmaslik + savdo + do'kon, savdo + iqtisod + munosabat, jo'natmoq + bojxona + organ, ko'rik + o'tkazmoq + shaxs, tovar + xavfsizlik + standart, tovar + olib o'tmoq + jismoniy + shaxs, tijorat + maqsad + foydalanmoq + transport + vosita.

3. Quyidagi so'zlarning o'zbek tilidagi muqobillari ishtirokida so'z birikmalari yasang. Ular ishtirokida mavzuga oid kichik matn tuzing.

Перемещение, взимание, оформление, осуществление, проведение, регулирование, обеспечение, контроль, борьба, рассмотрение, пополнение, защита, охрана.

4. Quyidagi tushunchalarga Bojxona kodeksi bo'yicha o'zbek tilida qisqacha sharh yozing.

Bojxona hududi –

bojxona chegarasi –

yuridik shaxs –

jismoniy shaxs –

bojxona nazoratining predmeti –
doimiy bojxona nazorati zonasi –
muvaqqat bojxona nazorati zonasi.

5. Berilgan tushunchalarning o‘zbek tilidagi muqobillarini yozing. Ular ishtirokida bog‘lanishli matn tuzing.

Оказание услуг в сфере таможенного дела;
зона таможенного контроля;
товары и транспортные средства, подлежащие таможенному контролю;
уполномоченное должностное лицо таможенного органа;
момент пересечения таможенной границы;
условно выпущенные товары;
государственная регистрация субъектов
предпринимательской деятельности;
система управления рисками;
предотвращение нарушения таможенного законодательства;
соглашение о взаимной помощи и обмене информации.

6. Gaplarni davom ettiring.

Shaxsiy yukni ko‘rikdan o‘tkazishda ma’lum bo‘ldiki,
Biz shu narsaning guvohi bo‘ldikki,
Bojxona posti inspektori ish joyini tashlab ketmasligi lozim,
chunki
Yo‘lovchi deklaratsiyani to‘ldirishga qiynalsa,
“Moskva-Toshkent” reysi kechikayotgani haqida e’lon qilingan
bo‘lsa-da,
Normativ hujjatlarni sinchiklab o‘rganish maqsadida
Bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan zahoti
Qayerda tartib-intizom bo‘lsa,

7. Quyidagi tushunchalarni to‘ldiring.

.....da xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi.

.....da bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish bo'yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi.

.....da xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari, ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.

.....da bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi.

8. Muammoli topshiriq.

Quyidagi jumlar bojxona postlarining qaysi turlarida va qanday vaziyatlarda qo'llanishini aniqlang. Jummalarni davom ettirib, suhbat matnlarini tuzing.

Buni mamlakatga olib kirish taqiqlanadi.

Bu tovarlarni olib chiqish taqiqlangan.

O'ramni ochishingizga to'g'ri keladi.

Bagajingizni tushiring va pastki polkani ko'taring.

Buni tarozi ustiga qo'ying.

Bojxona ko'rigi vaqtida vagon bo'ylab yurish taqiqlanadi.

Bu yerda boj olinmaydigan buyumlar ro'yxati bor.

Narsalaringizni bojxona ko'rigiga tayyorlashingizni so'raymiz.

Bu buyumlardan bojxona to'lovi undiriladi.

Siz bu narsalarni yashirincha, qoidaga xilof ravishda olib o'tyapsiz.

Barchangizdan kupedagi joylaringizni egallashingizni so'raymiz.

Kupeni ko'rikdan o'tkazish vaqtida vagon yo'lagiga chiqishingizni so'rayman.

Chamadoningizni pastki polkaga qo‘ying.
Pochta vagonida bagajingiz bormi?
Siz tushuntirish xati yozishingiz kerak.
Siz jarima to‘laysiz.

9. Bojxona xodimi va jismoniy shaxs orasida quyidagi bojxona postlarida bo‘lib o‘tadigan suhbat matnlarini tuzing.

- avto o‘tish punkti;
- xalqaro aeroport;
- yo‘lovchi poyezdi vagoni.

2-mashg‘ulot

1. Berilgan terminlarning o‘zbekcha muqobillarini yozing. Ular ishtirokida 5ta gap tuzing.

Обеспечение соблюдения законодательства, пересечение таможенной границы, принятие и оформление таможенной декларации, проверка документов и сведений, осмотр багажа, регистрация пассажиров на рейс, осуществление таможенного контроля.

2. Matnni o‘qib, mazmunini gapirib bering.

5000 AQSH dollariga teng yoki undan oshmaydigan summa doirasidagi naqd xorijiy valutani jismoniy shaxslar hech qanday ruxsatnomalarsiz O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketishi mumkin.

Belgilangan summadan ortiqcha mablag‘ni olib chiqib ketish:
rezidentlar tomonidan — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsatnomasi asosida;

norezidentlar tomonidan — O‘zbekiston Respublikasiga kirish chogida to‘ldirilgan yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasi asosida amalga oshiriladi. Deklaratsiyada naqd xorijiy valuta summasi olib chiqib

ketiladigan naqd xorijiy valuta summasidan kam bo‘lmagan miqdorda ko‘rsatiladi.

Norezidentlar — respublikada belgilangan tartibda tashkil qilingan musobaqalar, tanlov va olimpiadalarning sovrindorlari yoki qatnashchilari tomonidan belgilangan summadan ortiqcha naqd xorijiy valuta olib chiqib ketilayotganda naqd xorijiy valuta olinganligining qonuniyligini tasdiqlovchi hujjat ular tomonidan ushbu naqd xorijiy valutani olib chiqib ketish uchun asos bo‘ladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga naqd xorijiy valutani olib kirish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

3. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

Valuta (italyan. *valuta*, lot. *valere* – qadrlanmoq, qiymat) –

1) mamlakatning pul birligi va uning turi (oltin, kumush, qog‘oz);
2) chet mamlakatlarning xalqaro muomalada qo‘llanuvchi pullari, shuningdek shu mamlakatlarning pul birligida ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan *kredit* va to‘lov hujjatlari (veksellar, cheklar, banknotlar).

XIX asrgacha ko‘pchilik mamlakatlarda *kumush valuta* yoki *bimetalizm* pul tizimi keng tarqalgan edi. XIX asrdan boshlab, avvalo Angliyada, so‘ng boshqa mamlakatlarda *oltin valuta* qo‘llana bosladi. XX asrning 70-yillaridan boshlab qog‘oz valuta, ya’ni oltin va kumushga almashtirilmaydigan banknot va qog‘oz pullar muomalaga chiqqan. Ular inflatsiyaga uchrab turadi, qadrsizlanadi, natijada davlat tomonidan *devalvatsiya* tadbirlari o‘tkaziladi. Kursi barqaror valutarlar qadri baland valutarlar deyiladi. Valutalarning quyidagi turlari mavjud:

1) erkin almashtiriladigan (har qanday chet el valutasiga cheklanmagan miqdorda almashtiriladi, har qanday mamlakatga erkin o‘tkaziladi);

2) qisman almashtiriladigan (valuta almashuvi u yoki bu egalar, u yoki bu valuta harakatlari bilan chegaralanadi);

3) almashtirilmaydigan (bir mamlakat doirasida amal qiladigan).

O‘zbekiston Respublikasi milliy valuta birligi – so‘m 1994-yil 1-iyuldan muomalaga kiritilgan.

Valuta nazorati – davlat tomonidan chet el valutasini hamda valuta boyliklari bilan bog‘liq muomalalarda muayyan cheklashlarning joriy qilinishi. Valuta nazoratining odatdagi ko‘rinishi milliy valutani chet el valutasiga ayirboshlash, chet el valutasini mamlakat hududiga olib kirish va olib chiqib ketish, banklarning valuta operatsiyalari, banklarning vakillik hisob raqamlariga limitlar joriy etish kabilarda namoyon bo‘ladi.

(O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasidan)

4. Quyidagi terminlarning ma’nosini izohlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Olib kirishga ruxsat etilgan summa, cheklangan normalar, vakolatli banklar, valuta zaxirasi.

5. Quyida berilgan tartibni o‘z so‘zlaringiz bilan o‘zbek tilida ifodalang.

При ввозе и вывозе наличной национальной валюты Республики Узбекистан и иностранной валюты проверяется:

соблюдение предельных норм сумм, разрешенных к ввозу и вывозу;

наличие разрешения Центрального банка Республики Узбекистан или уполномоченных банков при ввозе и вывозе наличной национальной валюты Республики Узбекистан и иностранной валюты сверх установленных предельных норм сумм, разрешенных к ввозу и вывозу;

соответствие сумм, имеющих в наличии у физического лица, сведениям, указанным в таможенной декларации.

6. Gaplarni davom ettirib, kichik matnlar tuzing.

Davlatning moliyaviy barqarorligi
O‘zbekistondan eksport qilinadigan tovarlar
Erkin iqtisodiy zonalar
Xorijiy investitsiyalar
Soliq va bojxona imtiyozlari

7.Bojxona xodimi (B) bilan yo‘lovchi (Y)ning suhbatini mos so‘zlar bilan to‘ldirib, rolli o‘qing.

B: – Assalomu alaykum! O‘zbekistonga xush kelibsiz! Iltimos, ...ning ikki nusxasi va ...ni taqdim eting.

Y: – Marhamat.

B: – O‘zbekistonga nima maqsadda ...?

Y: – Hamkorlarim bilan ... uchun.

B: – Mamlakatimizda qancha ... bo‘lmoqchisiz?

Y: – Ikki hafta.

B: – Sizni kutib oluvchilar bormi?

Y: – Ha, hamkorlarim kutib olishadi.

B: – Bojxona deklaratsiyasining barcha ... bilan tanishdingizmi?

Y: – Ha.

B: – ... ni o‘zingiz joylab, o‘raganmisiz?

Y: – Ha, o‘zim.

B: – Bu ... kimga tegishli?

Y: – Menga.

B: – ... ni ochib ko‘rsatsangiz.

Y: – Marhamat.

B: – Bu nima?

Y: – Bu mening

B: – ...ning o‘zingizdagi ...ni yo‘qotib qo‘ymang, chunki qaytib ketayotganingizda olib kirgan ...ni olib chiqib ketishingiz uchun zarur bo‘ladi. Xayr!

Y: – Xayr!

Foydalanish uchun soʻzlar: *band, bojxona deklaratsiyasi, muddat, naqd valuta, nusxa, sumka, tashrif buyurmoq, uchrashish, xalta, shaxsiy buyumlar, yuk, oʻram, hujjatlar.*

8. Berilgan jummalarni qoʻllagan holda suhbat matnini tuzing.

Deklaratsiyada Sizga hamroh boʻlayotgan balogʻatga yetmagan oila aʼzolaringizning barcha koʻrsating.

Siz bagajingizni oʻzingiz joyladingizmi?

Sizda qandaydir xavfli yoki oʻtkir buyumlar bormi?

Siz kuzatib boriladigan va kuzatib borilmaydigan bagajning miqdorini aniq koʻrsatishingiz kerak.

Iltimos, qoʻl yukidagi buyumlaringiz haqida batafsil maʼlumot bering.

Buyumlaringizning qiymatini koʻrsatdingizmi?

Siz faqat Markaziy bank ruxsatnomasida koʻrsatilgan miqdordagi pulni olishingiz mumkin.

Hammasi joyida. Siz oʻtishingiz mumkin.

9. Bojxona nazoratini oʻtkazish bosqichlarini ketma-ketlikda aytib bering. Ushbu jarayonda qanday tadbirlar amalga oshiriladi? Nimalarga eʼtibor qaratiladi?

3-mashgʻulot

1. Qavs ichidagi soʻzlarning oʻzbekcha muqobillarini topib, soʻz birikmalari hosil qiling. Ularning mazmunini sharhlang.

(Экономика, политика) choralari;

(товар, состояние, природа) eskirishi;

bojxona organlarining (информация, система);

(товар, переработка) mahsuloti;

yengib boʻlmas (сила, действие);

tovarning (сопровождение, документы);
(труба, провод, поставка) tovarlar;
(расход, материал) va (расход, образец).

2. Gaplarni to'ldiring.

_____ shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan tovar uni ushbu hududdan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz shu yerda erkin muomalada qoladi.

_____ shunday rejimki, bunda O'zbekiston tovari uni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladi.

_____ bojxona rejimiga joylashtirilgan va amalda bojxona hududidan olib chiqilgan tovar _____ maqomini yo'qotadi.

3. Quyidagi so'zlarning o'zbekcha muqobillarini yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Содействие, безопасность, торгово-политический, предприниматель, госбюджет, зафиксированный, внутригосударственный, распространяться, сотрудничество, гармонизация, унификация, эффективность, компромисс.

4. Berilgan ta'riflarni o'rganib, o'z so'zingiz bilan ifodalang.

Eksport (ingl., lot. – olib chiqaman, chetga chiqaraman) – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq, tovarlar eksporti bojxona rejimida, bojxona to'lovlari to'langanidan keyin, iqtisodiy siyosat tadbirlariga rioya etilgan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa talablar bajarilgan hollarda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan chetga chiqariladi.

Import (ingl. *import* – keltirish, olib kelish) – mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o‘tkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qog‘ozlar va boshqalarni keltirish. Yuklar, passajirlarni chet eldan tashib keltirish, sayyohlik, sug‘urta, ilmiy-texnika bilimlari va boshqa xizmatlar xarajatlari ham import tarkibiga kiradi.

Tovar –

1) ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyatning moddiy buyum shaklidagi har qanday mahsuloti;

2) sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi oldi-sotdi, bozor munosabatlari obyektidir. Tovar bozorda sotish, ayirboshlash uchun va shu orqali boshqalarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqariladigan mehnat mahsulotidir.

(O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasidan)

5. Matndagi ma’lumotlarni o‘zbek tilida gapirib bering.

Постановлением Президента Республики Узбекистан установлены новые нормы беспошлинного ввоза товаров в Узбекистан: через аэропорты — в размере до \$2000, по железной дороге — \$1000, через автодорожные пункты пропуска — \$300.

Отныне таможенными пошлинами не облагаются ввозимые физическими лицами товары на сумму:

до 2000 долларов США — при пересечении таможенной границы через международные аэропорты Узбекистана;

до 1000 долларов — при пересечении таможенной границы через железнодорожные и речные пункты пропуска государственной границы;

до 300 долларов — при пересечении таможенной границы через автодорожные (пешеходные) пункты пропуска госграницы.

Кроме того, установлена предельная норма в 1000 долларов в течение календарного месяца для товаров, поступающих в адрес

физического лица в международных почтовых и курьерских отправлениях.

Предельная норма вывоза из Узбекистана физическими лицами товаров без представления таможенной декларации установлена в размере 3000 долларов.

Постановлением предусмотрены ограничения на беспошлинный ввоз физическими лицами отдельных видов товаров. Для алкогольной продукции, в том числе пива, — это 2 литра, всех видов табачных изделий — 10 пачек, духов и туалетной воды — 3 единицы, ювелирных изделий из драгоценных металлов и драгоценных камней — 65 граммов.

Установлены также предельные нормы вывоза физическими лицами отдельных товаров: риса — до 3 кг, хлебобулочных изделий — до 5 кг, мяса и пищевых мясных субпродуктов — до 2 кг, сахара — до 2 кг, растительных масел — до 2 кг, свежей плодоовощной продукции, винограда, бахчевых, бобовых, сушеных овощей и фруктов — до 40 кг.

Ввоз и вывоз физическими лицами товаров в пределах указанных норм осуществляется без их обязательного письменного декларирования. Исключение составляют международные почтовые и курьерские отправления.

6. Tailandning bojxona qoidalari haqidagi ma'lumotni o'qib chiqing. Dunyoning turli mamlakatlari bojxona qoidalari haqida ma'lumot tayyorlang.

Tailandga boj to'lamasdan quyidagilarni olib kirish mumkin:

- 1 litr alkogolli ichimlik,
- 250 grammacha tamaki mahsulotlari,
- 1ta fotoapparat,
- 1ta videokamera.

Mamlakatga quyidagilarni olib kirish qat'iyon taqiqlanadi:

- narkotiklar va psixotrop vositalar,
- qurol-yarog',

staffordshir-teryer zotli itlar,
korallar,
fil suyagidan yasalgan buyumlar,
muhofaza qilinadigan hayvonlarning teri va suyaklari.

Tailanddan istalgan miqdorda mamlakat valutasini va xorijiy valutanini, shuningdek Buddha tasvirlarini (faqat medalyonlar ko‘rinishida) olib chiqish mumkin. Biroq 50000 mahalliy bat hamda 20000 AQSH dollaridan ortiq miqdordagi pulni deklaratsiyalash lozim.

Qadimiy buyumlar va san’at asarlarini olib chiqish uchun Tasviriy san’at departamentining ruxsatnomasi talab qilinadi.

7. Rasmga qarab, undagi vaziyatni tasvirlab bering. Chamadonning ichida topilgan narsalarni tasavvur qilib, hikoyani davom ettiring.



8. Berilgan jumlar ishtirokida suhbat matnini tuzing va uni inssenirovka qiling.

Bu tovarlarni olib chiqish taqiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish qoidalari shunday.

Bu buyumlardan boj olinadimi?

Bu buyumlar cheklovga tushadimi?

Bu tovarlar ruxsat berilgan normalardan ko‘p.

Sigaretlar boj to‘lanmaydigan tovarlarga kiradimi?

Menda faqat oilam uchun sovg‘a tariqasida olgan bir necha mayda-chuyda buyumlar bor.

Deklaratsiyaga yozadigan narsalaringiz bormi?

Siz qancha xorijiy valuta olib kirayotganingizni ko‘rsatdingizmi?

Siz bojxona deklaratsiyasining barcha bandlari bilan tanishdingizmi?

Iltimos, bojxona deklaratsiyasining o‘zingizdagi nusxasini mamlakatdan chiqib ketguningizgacha saqlab qo‘ying.

Men kirish deklaratsiyasini saqlab qolmagan edim.

Bu holda sizga xorijiy valutani O‘zbekistondan olib chiqish taqiqlanadi.

Iltimos, pulingizni sizni kuzatib kelgan shaxsga qoldiring.

Men mamlakatga kredit kartalari olib kirganman, naqd pul emas.

9. Tovarlar va buyumlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqish me‘yorlari haqida elektron taqdimot tayyorlang.

8-mavzu MADANIY YODGORLIKLARNI HIMOYA QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING ROLI



1. Quyidagi soʻzlarning mazmunini lugʻat yordamida aniqlab, guruhlarga ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sayyoh, oftoba, kashkul, koʻza, qumgʻon, tuncha, havoncha, lagan, sopol, gilam, soʻzana, palak, joynamoz, xurjun, gapilik, chuval, kirpech, sochpopuk, bilakuzuk, tillaqosh, zebigardon, baldoq, kalitbogʻ, tumor, sirgʻa, chopon, paranji, ikona.

2. Berilgan taʼriflarni yod oling. Ular qaysi qonunda berilganini ayting.

Madaniy boyliklar – moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-maʼrifiy, maʼnaviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik koʻchar ashyolari.

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi – madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib oʻtish.

Madaniy boyliklarning olib kirilishi – madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasi hududiga ularni qaytarib olib chiqish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib oʻtish.

Madaniy boyliklarni vaqtincha olib chiqilishi – madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni shartlashib qo‘yilgan muddatda qaytarib olib kirish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o‘tish.

Madaniy boyliklarni vaqtincha olib kirilishi – madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga ularni shartlashib qo‘yilgan muddatda qaytarib olib chiqish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o‘tish.

3. Matnni o‘qib, mazmunini qisqacha so‘zlab bering.

O‘zbek xalqi qadimdan jahon durdonalariga aylangan noyob tarixiy madaniy boyliklarni yaratib kelgan. O‘zbekistonning boy madaniyati va tarixi jahon xalqlarini o‘ziga rom qilib kelayotgani hech kimga sir emas. Qadimiy Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz shaharlari faqat olimlar va san’at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va



umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan.

Mamlakatimiz xalqlarining boy madaniy merosini saqlash, uni kelajak avlodga yetkazish maqsadida bojxona chegarasi orqali madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib o‘tilishining oldini olish hamda xalqaro madaniy aloqalarni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi Qonuni

qabul qilingan.

Milliy, tarixiy, badiiy, ruhiy-ma’naviy va boshqa madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan boyliklarning saqlab qolinishiga bojxona organlari o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shmoqdalar.

Madaniy boyliklarni saqlash, himoya qilish va bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishining oldini olish tartib-qoidalarining bajarilishida O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati bilan uzviy aloqada ish olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining bu borada mavjud bo‘lgan xalqaro konvensiyalarga a‘zo bo‘lganligi, ko‘pchilik mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan imzolangan ko‘p va ikki tomonlama kelishuvlar fikrimizning isbotidir.

O‘zbekiston Respublikasining yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qonuniga muvofiq bojxona organlariga madaniy boyliklarning bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishini nazorat qiluvchi davlar organi maqomi berilgan.

(“Qaytarilgan noyob boyliklar” risolasidan)

4. So‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Историческое достояние –

Незаконный вывоз –

Произведения изобразительного искусства –

Ремесленничество –

Министерство культуры –

Единый порядок –

Искусствовед –

Почтовые отправления –

5. Quyidagi nutq qoliplari yordamida gaplar tuzing. Gaplarni kengaytirib, matn yrating. Matnga sarlavha qo‘ying.

Tarixiy shaharlarda (.....) (.....)larni xarid qiladilar.

(.....)ni mamlakatdan olib chiqib ketish uchun (.....) talab qilinadi.

(.....) (.....)ni tartibga soladi.

(.....) postida (.....) taqdim qilinadi.

(.....) bilan (.....) taqqoslanadi.

(.....) uchun (.....) to‘lanadi.

(.....) boyliklarga (.....), (.....), (.....), (.....)lar kiradi.

6. Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan tushunchalarning ma'nosini sharhlang.

Quyidagilar madaniy boyliklar sifatida talqin qilinadi:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar;

chet ellik fuqarolar va *fuqaroligi bo'lmagan shaxslar* tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida yaratilgan madaniy boyliklar;

O'zbekiston Respublikasi hududida topilgan madaniy boyliklar; muzeylarda, *axborot-kutubxona muassasalarida*, arxivlarda, *idoraviy arxivlarda*, kino-, foto-, *fonotekalarda*, *suratlar galereyalarida* va boshqa saqlash joylarida to'plangan madaniy boyliklar;

qaysi davlatlarga mansub bo'lsa, o'sha davlatlarning *vakolatli organlari* roziligi bilan arxeologik, *etnologik* va tabiiy-ilmiy *ekspeditsiyalar* tomonidan qo'lga kiritilgan madaniy boyliklar;

ixtiyoriy ravishda *ayirboshlashlar* natijasida olingan madaniy boyliklar;

qaysi davlatlarga mansub bo'lsa, o'sha davlatlarning vakolatli organlari roziligi bilan *meros, hadya* sifatida olingan yoki qonuniy qo'lga kiritilgan madaniy boyliklar;

chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan madaniy boyliklar.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi mumkin emas:

– 50 yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklar;

– davlat tomonidan *muhofaza ro'yxatlari* va *rejestrlariga* kiritilgan madaniy boyliklar;

– muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlar, idoraviy arxivlar va boshqa saqlash joylarida doimiy saqlanayotgan madaniy boyliklar.

7. Berilgan ta'riflarning mazmunini o'zbek tilida ifodalang.

Реликвия (от латинского глагола *relinquere* – «оставаться») – свято хранимая, почитаемая вещь, связанная с историческими или религиозными событиями прошлого.

Исторические реликвии являются своего рода документами, свидетелями былых событий. Яркими историческими реликвиями являются боевые знамёна, рукописи и древние манускрипты, регалии власти, государственные печати.

Религиозные реликвии бывают подлинными или же поддельными, а также образно-поэтическими, основанными на народной мифологии. С реликвиями, как правило, связаны самостоятельные и своеобразные культы, существующие внутри религий.

Семейные реликвии — документы, предметы, принадлежащие семье или роду и передающиеся по наследству из поколения в поколение.

Технические реликвии — экземпляры машин или иных технических устройств, относящихся к типам, выпущенным в прошлом и давно не используемым, но сохранившимся в работоспособном или восстановимом состоянии.

8. Berilgan so‘z birikmalari ishtirokida bog‘lanishli matn tuzing.

Madaniy yodgorliklar, arxitektura fragmenti, zarb ettirilgan, osori atiqalar, firuza ko‘zli, qo‘l choki, ipakdan to‘qilgan, kashtachilik, mis kandakorligi, nashr qilingan.

9. Muammoli topshiriq. Quyidagi dialoglarni davom ettiring. Yuzaga kelgan holat bo‘yicha xatti-harakatlaringizni ko‘rsating.

A)

– Iltimos, sumkangizdagi o‘ramni oching.

– Yo‘q, ochmayman, uni arang o‘raganman!

– Biz o‘ramning ichidagi buyumni nazoratdan o‘tkazishimiz kerak.

– Buni menga sovg‘a qilishdi, uning ichida nima borligini bilmayman!..

–

B)

– Bu gilamni qatedan oldingiz?

– Bozordan sotib oldim.


– Qaysi bozordan sotib oldingiz?

– Buning nima ahamiyati bor? Men uni o‘z pulimga sotib oldim, axir!..

10. “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to‘g‘risida Nizom”ni o‘rganib chiqib, konspekt tuzing.

11. Rasmlarda tasvirlangan buyumlarni qisqacha ta’riflang.





12. Maqolaga annotatsiya yozing.

Muzeylarning asosiy maqsadi ajdodlardan qolgan boy tarixiy-madaniy merosni saqlash, to‘plash, ularni ko‘rgazmalar, nashrlar, kataloglar yordamida targ‘ib etish hamda yoshlarda milliy merosimizga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

Jahonning yirik muzeylari va kolleksiyalarida O‘zbekiston tarixiga oid juda ko‘plab noyob buyumlar saqlanmoqda. Ushbu moddiy-madaniy merosimiz tarixning turli davrlarida har xil sabablar bilan chet ellarga olib ketilgan. O‘sha paytlarda yurtimizda arxeologik, etnografik ekspeditsiyalar tashkil etilishi va to‘plangan ashyolar yordamida xalqaro ko‘rgazmalar o‘tkazilishi, mahalliy aholining milliy merosga bo‘lgan e‘tibori sustligi bois markazga ularning sovg‘a sifatida taqdim qilinishi kabi omillar shular jumlasidan. Ularni ajoyib amaliy san‘at asarlari, nodir qo‘lyozmalar, nafis miniaturalar kabi turli ashyolarga bo‘lish mumkin. Albatta, ayni paytda jahon muzeylarida saqlanayotgan ushbu durdona osori atiqalarimiz betakrorligi, yasalish texnikasining o‘ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etib, umumbashariy madaniyat rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Lekin

masalaning yana bir tomoni borki, ularning haqiqiy egasi ushbu qadimiy, betakror xazinani ko‘ra olmayapti.

Qolaversa, dunyoning boshqa yirik muzeylari va kolleksiyalarida O‘zbekiston tarixiga oid noyob madaniy boyliklarni ilmiy-amaliy tadqiq qilish hali ko‘plab ilmiy tadqiqotlar ustida ishlashni, mutaxassislarni chet el safarlariga yuborib, joyida o‘rganishni taqozo etadi va bu kabi ishlarning bajarilishi yosh muzeyshunoslar, tarixchilar, san’atshunoslar, etnograflar uchun muhim amaliyot bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarda ajdodlar merosiga faxr-iftixor, milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otib, xalqlararo madaniy muloqot o‘rnatilishida katta ahamiyat kasb etadi.

(Dilafro‘z Qurbonova, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi katta ilmiy xodimi.)

13. Ommaviy axborot vositalaridan madaniy boyliklarni olib chiqib ketishning oldi olinganligi haqidagi materiallarni topib, ma’lumot tayyorlang.

14. Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish chog‘ida bojxona postida yuz beradigan suhbat matnini tuzing.

KONTRABANDA VA UNING IQTISODIY ZARARI



1. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi, portlatish qurilmalari, samarasizlik, o‘qotar qurol, aqidaparastlik, targ‘ib qilish, jinoiy maqsadlar, uyushgan jinoyatchilik, qurolli harakatlar, davlatlararo hamkorlik.

2. “Kontrabanda” tushunchasining quyidagi tavsifini eslab qoling.

Kontrabanda – bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta’sir qiluvchi zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni, shuningdek giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish.

3. Kontrabanda turlari va ularning qisqacha tavsifini jadval shaklida ifodalang.

4. Matnni o‘qib, mazmunini gapirib bering.

“Kontrabanda” so‘zi lotincha “*contra*” – “qarshi”, “*bando*” – “hukumat farmoni” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “*hukumat farmoniga qarshi*” degan ma‘noni anglatadi.

Kontrabanda inson savdo-sotiq bilan shug‘ullanishni boshlagan davrda paydo bo‘lgan. Ushbu jinoyatni sodir etuvchi shaxslar o‘zlarining jinoiy maqsadlariga erishish uchun uyushgan guruhlar tuzib, o‘z harakatlarini puxta niqoblab, jinoyat uslublarini mukammallashtirib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanmoqdalar.

Kontrabanda jinoyati XX asrning 90-yillarida avj ola boshladi. Buning sababi quyidagi sharoitlar bilan izohlanadi:

- mustaqillikka erishgan yosh davlatlarda yangi narkobozorlarning paydo bo‘lishi;
- transport kommunikatsiyasi, yuk va yo‘lovchi tashishning keskin oshishi;
- Yevropa va Rossiyadagi bozorlarning mavjudligi va kuchayishi;
- chegara va bojxona nazoratini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar (chegaraning ochiqligi, texnik vositalar va mutaxassislarning yetishmasligi);
- Yevropa va okeanorti mamlakatlarida giyohvand moddalar narxining oshishi;
- davlatlararo hamkorlikning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- ayrim mamlakatlarda ishchi o‘rinlarining yetishmasligi, sanoatning yo‘qligi, aholisining kambag‘alligi;
- giyohvandlikka qarshi kurashning samarasizligi;
- uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi;
- kuchli narkotiklarning paydo bo‘lishi;
- Afg‘onistonda uzoq muddat davom etgan urush, Tojikiston va Qirg‘izistonda sodir etilgan qurolli harakatlar natijasida yig‘ilib qolgan,

yashirib qo'yilgan qurol-yarog' va o'qdori omborlarining mavjudligi va h.k.

O'zbekiston Respublikasida bojxona qoidabuzarligi bilan bog'liq holatlarga va kontrabanda jinoyatiga qarshi kurashish bojxona organlarining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Davlat bojxona qo'mitasi boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda davlatning iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan kriminal guruhlarni aniqlash va ularning jinoiy harakatlarining oldini olish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Bojxona xizmati xodimlari tomonidan ko'p miqdorda narkotik moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar, psixotrop moddalarning tabletkalari va ampulalari, o'qotar qurollar va o'qdorilar, diniy ekstremistik mazmundagi materiallar ushlanib, sodir etilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldi olinmoqda.

5. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'ying. Ajratib ko'rsatilgan terminlarning ma'nosini izohlang.

Mamlakatimiz *sud tizimi*... turli sohalar... oid qonunlar... bir xilda qo'llash... qaratilgan samarali faoliyat yo'l... qo'yilgan. Jumladan, sudlar... bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi... oid hamda kontrabanda jinoyati bilan bog'liq ishlar... ko'rish... O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi va soha... tegishli boshqa qonunlar bilan birga, *Oliy sud plenumi*... qarorlari muhim asos bo'lmoqda.

Mamlakatimiz... bozor munosabatlari... rivojlanishi hamda xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlar... jadallashgani natijasi... iqtisodiyot sohasi... soliq va boshqa *majburiy to'lovlar*... to'lash... bo'yin tovlash, kontrabanda tovarlar... olib kirish kabi jinoyatlar ham uchrab turibdi. Shu munosabat bilan mazkur sohadagi huquqbuzarliklar... oldi... olish va bartaraf etish... qaratilgan yangi qonunlar qabul qilish, iqtisodiyot va bojxona sohasidagi *ijtimoiy munosabatlar*... tartib... soluvchi *qonunchilik normalari*... takomillashtirish zarurati bor.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi... kontrabanda va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari... buzish jinoyati bo‘yicha *sud amaliyoti*... oid qarori loyihasi shu maqsad... yangi tahrir... ishlab chiqildi. *Sud-tergov amaliyoti*... huquq... qo‘llash faoliyati... yagonaligi... ta‘minlash, qilmishlar... to‘g‘ri *kvalifikatsiya qilish*, shuningdek, qonunchilik normalari... turlicha sharhlanishi... yo‘l qo‘ymaslik... qaratilgan mazkur hujjat... *kontrabanda predmetlari* ro‘yxati kengaytirilgan. *Jinoiy xususiyatga ega harakatlar*, hujjatlar... qalbakilashtirish, *jinoiyat predmeti*... *ashyoviy dalil* va jinoiyat predmeti deb topish masalalari... aniqlik kiritilgan.

6. Quyidagi iboralarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Борьба с нарушениями таможенных правил
Нарушение валютного законодательства
Химическое и биологическое оружие
Незаконное использование сведений
Пресечение незаконного оборота наркотических средств
Дипломатическое представительство иностранного
государства
Несоблюдение установленных требований
Перевозка грузов железнодорожным транспортом
Предметы художественного, исторического и
археологического значения
Нарушение режима зоны таможенного контроля
Технические средства таможенного контроля
Конфискация валюты таможенными органами

7. Berilgan ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari yordamida kengaytiring.

1. O‘rta asrlarda safarda halok bo‘lgan savdogarlarning tovarlari ularning merosxo‘rlari aniqlanmaguncha qo‘riqlanar edi.

2. Biror knyazning yerlaridan savdo karvonlari o'tayotganda yerga nimadir tushsa, o'sha narsa yer egasining mulkiga o'tar edi. Knyaz tepalikda otda o'tirgan holda "o'lja"sini poylardi.

3. Kontrabanda inson savdo-sotiq bilan shug'ullana boshlaganda paydo bo'lgan.

4. Gollandiyada lolalarni eksportga chiqarishga ruxsat berilgach, golland savdogarlari dengiz orti mamlakatlaridan ziravorlar olib kelishni boshladilar. Ziravorlar uchun mahalliy omi aholi bilan hisob-kitobni past probali kumush tangalarda amalga oshirganlar.

8. Matnning mazmunini o'zbek tilida gapirib bering. Matnga sarlavha qo'ying.

Занятия контрабандой уходят в далекое прошлое – английское слово «*smuggling*» происходит из прагерманского или старонорвежского, означающего «проскользнуть, пробраться сквозь нору». Контрабанда – это побочная дочь таможенных пошлин, к которым рано или поздно приходило любое государство с целью повышения доходов или придерживаясь политики протекционизма. В морской державе занятия контрабандой были особенно увлекательны и прибыльны, к тому же южный берег Англии как нельзя лучше подходил для этого волнующего занятия – с одной стороны, рукой подать до Франции, а с другой – богатые фермеры прибрежных графств, желающие выгодно продать шерсть во Фландрию, и жадные до заморского добра рынки богатого Лондона.

Официальная история английской контрабанды начинается в 1275 году, когда Эдуард I ввел высокие таможенные пошлины на экспорт шерсти, желая поддержать отечественных ткачей. Такая политика шла в разрез с предыдущей: в XI веке право беспошлинной торговли получили жители южных портов Сэндвич, Дувр, Хит, Ромней и Гастингс от Эдуарда Исповедника в обмен на корабли и живую силу во время войны. Новые налоги в XIII веке были восприняты без души, и население бойкотировало

постановления правительства, продвигая привычные принципы свободной торговли. Да и южный берег был усеян бухточками, пещерами и укромными уголками, самой природой предназначенными для тайных деяний по доставке, хранению и перепродаже контрабандных грузов.

Контрабандистов называли *owlers* («совники») из-за вполне понятного пристрастия работать ночами. Существует и другое объяснение: «owler» – это некорректное произношение «wooler» («тот, кто имеет дело с шерстью»), так как началось-то все именно с экспорта шерсти тучных и пушистых английских овец, мирно пасущихся на зеленой английской траве. Начав с экспорта шерсти и зерна, контрабандисты перешли на импорт товаров с континента, особенно во время войн с Францией, когда вводилось эмбарго на французские товары. Высокие таможенные пошлины на чай, вино, крепкие спиртные напитки и товары роскоши (например, кружева или ткани) обрекали вольных торговцев на крайне прибыльный бизнес: обеспечение людей желанными товарами по сходной цене – по сути дела акт гуманизма и доброй воли, заботы об окружающих – было куда более доходным, чем скучная рыбная ловля. Купцы и государственные чиновники также не собирались отказываться от своего посильного вклада в дело глобализации и мира без границ: так, в середине XVI века в Бристоле незаконный импорт зерна и кожи составлял существенную часть городского бизнеса, в котором принимало участие многие члены городской элиты.

Следует отметить, что в те времена контрабанда не имела ничего общего с современной криминальной торговлей наркотиками и людьми, а была относительно честным бизнесом, в котором требовалась не только ловкость рук, сила мышц, но и сообразительность, предприимчивость и большая доля отваги.

(livejournal.com saytidan)

9. Tretyakov galereyasining dastlabki kartinalaridan biri – Vasiliy Xudyakovning “Finlandiya kontrabandachilari bilan to‘qnashuv” asarini tasvirlab berim.



10. Badiiy adabiyot, san'at, kinematografiya sohalarida kontrabanda mavzusida yaratilgan asarlar haqida ma'lumot tayyorlang va ularga qisqa annotatsiyalar yozing.

11. Berilgan jumlar hamda ommaviy axborot vositalarida berilgan xabarlardan foydalanib, "Narkotik moddalar kontrabandasi" mavzusida matn tuzing.

Narkotiklarning noqonuniy aylanishi;
transmilliy muammo;
iqtisodiyotga xavf solmoq;
huquqni muhofaza qilish organlari;
xalqaro jinoiy sindikatlar;
yillik daromad hajmi;
narkomafiya;
xalqaro hamkorlik;
narkotik moddalar haqidagi konvensiya;
musodara qilish.

12. Ommaviy axborot vositalaridan bojxona xodimlari tomonidan aniqlangan kontrabanda holatlari to'g'risidagi maqolalar obzorini tayyorlang.

10-mavzu BOJXONA ORGANLARINING XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIGI



1-mashg'ulot

1. Savollarga javob bering.

Xalqaro tashkilot deb qanday tashkilotga aytiladi?

Siz qaysi xalqaro tashkilotlarni bilasiz?

O'zbekiston Respublikasi qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo?

2. Quyidagi jumalarning mazmunini izohlang.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi;

erkin savdoni ta'minlash shartlari;

xalqaro savdoda kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;

xizmatlar savdosi;

bojxona to'lovlarining pasaytirilishi;

xalqaro savdo tizimi;

bojsiz savdo;

o'zaro manfaatli hamkorlik;

majburiyatlarni bajarish.

3. Matndagi ma'lumotlarni klaster shaklida ifodalang.

Xalqaro tashkilotlar – davlatlarning yoki hukumat qaramog'ida bo'lmagan milliy jamiyatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika, madaniyat va shu kabi sohalarda umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan uyushmasi; davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning eng muhim shakllaridan biri. Xalqaro tashkilotlar XIX asrda vujudga kelgan va ikkinchi jahon urushidan keyin ko'plab tuzila boshlagan.

Hozirgi kunda ayrim ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro tashkilotlarning soni 8000dan ortiq bo'lib, 400tasi hukumatlararo tashkilotlar bo'lib dir.

Xalqaro tashkilotlar o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, xalqaro tashkilotlarning tuzilmasi, asosiy maqsadi va tashkilot faoliyatining yo'nalishlarini belgilab beruvchi ta'sis hujjati (ustavi) bo'ladi; bunday tashkilotlar doimiy yoki vaqti-vaqti bilan faoliyat yuritadi; ko'p tomonlama muzokaralar va muammolarni muhokama qilish ular faoliyatining asosiy usuli hisoblanadi; qarorlar ovoz berish yoki konsensus yo'li bilan qabul qilinadi; qarorlar, odatda, tavsiyaviy kuchga ega bo'ladi. Hukumatlararo tashkilotlar va nohukumat xalqaro tashkilotlar, shuningdek, umumjahon va mintaqaviy tashkilotlar farqlanadi.

Xalqaro tashkilotlar aynan tashkilot, jamg'arma, bank, agentlik, markaz va shu kabi nomlar bilan ataladi.

4. Matnni o'qib, mazmunini so'zlab bering. Ajratib ko'rsatilgan so'z va iboralar ma'nosini tushuntiring.

O'zbekiston istiqlolning ilk kunlaridanoq *tashqi siyosat* bobida mustaqil *strategiyasini* ma'lum qildi. Mamlakat manfaatlariga mos keladigan, uning jahon *hamjamiyatidagi* obro'-e'tiborini mustahkamlashga xizmat qiladigan tashqi siyosiy *tamoyillarni* ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Bu tamoyillar, avvalambor, davlatlarning *suveren tengligi*, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan *tahdid*

qilmaslik, *chegaralar daxlsizligi*, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning *umume’tirof etilgan* qoidalariga tayanilgan holda amalga oshirildi. Shunga asoslangan holda, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri *mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash* va uning barqarorligiga xavf solayotgan terrorizm, narkobiznes, diniy ekstremizm kabi tahdidlarning har qanday ko‘rinishiga qarshi qat’iy kurash olib borishdan iborat bo‘ldi.

O‘zbekiston mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida qator xalqaro va *mintaqaviy tashkilotlar* doirasida tegishli faoliyatni olib bormoqda. Zero, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni olib borish nafaqat mintaqa, balki dunyo xavfsizligini ta’minlashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizning bu boradagi ilk qadami Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘lishi bilan boshlandi. O‘zbekiston 1992-yil 2-martda BMTning teng huquqli a‘zosi bo‘ldi. Mazkur tashkilot doirasidagi o‘zaro aloqalar Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, barqarorlik va o‘zaro hamkorlikka qaratilgan bo‘lib, unda xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm, narkobiznes va *uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy qurol savdosi* kabi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilmoqda.

BMT doirasida mamlakatimiz Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hudud deb e‘lon qilish yuzasidan faol hamkorlikni amalga oshirdi. Zero, Markaziy Osiyo davlatlari yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar hududiga yaqin joylashgani bois, mintaqada *yadroviy xavfsizlikni ta’minlash* o‘ta dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Bugunga kelib mamlakatimiz Afg‘onistonning urushdan keyingi tiklanish jarayoniga ko‘maklashish bo‘yicha BMT dasturlarida ham faol qatnashmoqda. O‘zbekiston qo‘shni davlatga gumanitar yordam berish, mamlakatda *transport infratuzilmasini*, jumladan, yo‘l va ko‘priklarni qayta tiklash haqida, ta’lim sohasida, qurilish va obodonchilik borasida o‘zaro hamkorlik rishtalarini yo‘lga qo‘ydi.

Mamlakatimizning xalqaro maydondagi hamkorligi, birinchi navbatda, uning boshqa davlatlar bilan o‘rnatayotgan munosabatlari tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lish, mintaqada xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, geosiyosiy muvozanatni saqlashga qaratilgan.

5. Quyidagi so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Под эгидой государства;
национальные общества;
форма сотрудничества;
межгосударственные организации;
соглашения и договоры;
обсуждение проблем;
тарифное и нетарифное регулирование;
координация деятельности;
региональный узел связи;
единое информационное пространство.

6. Matnni o‘qib, mazmuni bo‘yicha qisqa tezislar tuzing.

MDHga a‘zo davlatlar bojxona xizmatlari rahbarlari Kengashiga 1993-yilda asos solingan. 1993-yil 23-dekabrda MDH hukumat rahbarlari Kengashining qaroriga binoan MDHga a‘zo davlatlar Bojxona xizmatlari rahbarlari Kengashining Nizomi tasdiqlandi. Keyinchalik, 2002-yil 30-mayda MDH hukumat rahbarlari Kengashining qaroriga binoan ushbu Nizomning yangi tahriri tasdiqlandi. 2008-yil 23-mayda ushbu Nizomga o‘zgartirishlar kiritildi.

MDH BXRK o‘z faoliyatini olib borishda MDHga a‘zo davlatlar o‘rtasida imzolangan bitim va kelishuvlar, MDH davlat rahbarlari Kengashi va hukumat rahbarlari Kengashi qarorlari, Iqtisodiy Kengash, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi qarorlari va yuqoridagi Nizom talablariga asoslanadi.

MDH BXRK doirasida bir yilda to‘rt marta bojxona xizmatlari ekspertlarining va ikki marta bojxona xizmatlari rahbarlarining yig‘ilishi o‘tkaziladi.

MDH BXRKning asosiy vazifalari quyidagilar:

- 1) bojxona qonunchiliklarini yaqinlashtirish va uyg‘unlashtirish;
- 2) tarif va notarif boshqaruvning ta’sirchan mexanizmlarini shakllantirish;
- 3) bojxona qoidalari va rasmiyatchiliklarini soddalashtirish bo‘yicha maslahatlar ishlab chiqish;
- 4) bojxona siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha bojxona va boshqa milliy xizmatlarning amaliy hamkorligini muvofiqlashtirish;
- 5) tashqi savdo bojxona statistikasi ma’lumotlari almashuvini tashkil etish;
- 6) bojxona qoidabuzarliklari va tovarlar kontrabandasini oldini olishning samarali choralarini ishlab chiqish;
- 7) bojxona xizmatlarining bojxona chegaralarini tashkillashtirishini muvofiqlashtirish.

MDH BXRK tomonidan bir qator muhim hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan:

- MDHga a’zo davlatlar tashqi savdo bojxona statistikasi Yagona metodologiyasi;
- MDHga a’zo davlatlar bojxona qonunchiligi asoslari;
- MDHga a’zo davlatlar Yagona tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi haqidagi Bitim;
- MDHga a’zo davlatlar hududlari orqali tranzit tartibi haqidagi Bitim;
- Tovarlarning kelib chiqish davlatini aniqlash qoidalari va boshqalar.

Huquqni muhofaza qilish sohasida bojxona xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 2001-yil 13-sentabrda MDH BXRK qaroriga binoan Jahon bojxona tashkilotining MDH davlatlari bo‘yicha huquqni muhofaza qilish yo‘nalishidagi ishlar bo‘yicha mintaqaviy aloqa markazi “RILO-Moskva” tashkil etildi. “RILO-Moskva” orqali bojxona xizmatlari kontrabandaning o‘ta xavfli turlari, jumladan yirik

partiyadagi narkotik vositalar va psixotrop moddalarning aniqlangan holatlari bo'yicha muntazam axborot almashadilar.

2003-yildan boshlab MDHga a'zo davlatlar bojxona xizmatlari yagona axborot hududi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

7. Matbuotdan O'zbekiston rahbariyatining BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqlari hamda ularning asosiy g'oyalari haqidagi ma'lumotlarni toping. Ularni qisqacha so'zlab bering va jadval ko'rinishida ifodalang.

8. Xalqaro tashkilotlardan birining faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.

2-mashg'ulot

1. Savollarga javob bering.

Jahon savdo tashkiloti qachon tuzilgan?

JST dunyo iqtisodiyoti rivojiga qanday hissa qo'shadi?

JST o'z a'zolariga qanday shart-sharoitlar yaratib beradi?

O'zbekistonning JSTga kirishi qanday ahamiyatga ega?

2. Berilgan tushunchalarni ta'riflang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Iqtisodiy hamkorlik –

savdo tamoyillari –

savdo siyosati –

halol raqobat –

investitsiyaning barqarorligi –

raqobat muhiti –

xalqaro standartlar qoidalari –

tovar nomenklaturasi.

3. Matnni o‘qib, uning mazmuni bo‘yicha qisqa tezislar tuzing.

Jahon savdo tashkiloti (World Trade Organization (WTO)) — 1995-yilda a‘zo-davlatlar o‘rtasidagi xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan. JST 1947-yilda Jenevada tuzilgan xalqaro tashkilot — “Savdo va tariflar bo‘yicha Bosh kelishuv” (GATT — General Agreement on Tariffs and Trade) ning davomchisi hisoblanadi. Xalqaro savdoda tashkilotga a‘zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo‘lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan xukumatlararo ko‘p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. GATT – xalqaro savdoning boj-tarif jihatlarini tartibga soluvchi eng nufuzli tuzilmadir. Tashkilot savdo erkinligi g‘oyalari, ya‘ni xalqaro savdoda ishtirok etuvchi tomonlarning tengligini ifoda etadi.



Jahon savdo tashkiloti mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo muloqotlarini o‘tkazish va bu boradagi nizolarni hal etish imkoniyatini beruvchi global maydon hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning 160dan ortiq davlati unga a‘zo. BMT mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni, Jahon savdo tashkiloti esa ular o‘rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soladi.

JSTning *vazifalari* quyidagilar:

- tovarlar savdosida savdo to‘siqlarini bartaraf etish;
- jahon savdosida barcha turdagi cheklovlarni bekor qilish;
- real daromadlar va talabni oshirish;
- xom ashyodan foydalanishni yaxshilash;
- ishlab chiqarish va tovar ayirboshlashni rivojlantirish.

Haq-huquq cheklanmagan savdo, eng yuqori darajadagi qulay tartib, milliy tartibot, ochiqlik, bozorga kirish uchun oldindan ma‘lum sharoit, halol raqobat, iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishga ko‘mak,

savdoga daxldor rasmiyatchilik darajasining pastligi kabilar JSTning asosiy *tamoyillari* hisoblanadi.

A'zo davlatlarning savdo siyosati JST tartib-qoidalariga mos bo'lishi darkor. Unga a'zo bo'lib kirish esa ushbu davlatning mazkur tashkilot va uning boshqa a'zolaridagi savdo siyosati va savdo rejimiga mos ekanligini bildiruvchi belgi hisoblanadi. Tashkilot qoidalarini buzgan holatda, huquqlari buzilgan a'zo tashkilotning nizolarni hal etish organiga murojaat qilishi mumkin.

JST a'zolar tomonidan boshqariladigan organ hisoblanadi. Shuning uchun nomzod davlatning savdo tartibi tashkilot qoidalariga to'liq mos ekani barcha a'zo mamlakatlar tomonidan ma'qullanganidan so'ng tegishli qaror qabul qilinadi.

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lib kirish uchun 1994-yilda ariza bergan. JSTga a'zo bo'lish mamlakatni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi xalqaro savdo tizimida o'zining taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini yaratib, JSTning barcha a'zo davlatlari tomonidan O'zbekiston eksport qilayotgan tovar va xizmatlari kamsitilmasligini va ularga eng ko'p qulaylik berish rejimi qo'llanishini kafolatlaydi.

4. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Uning mazmunini gapirib bering.

Мир отчасти является результатом функционирования двух наиболее фундаментальных принципов торговой системы: беспрепятственное движение торговых потоков и предоставление странам конструктивной и справедливой платформы для рассмотрения споров по вопросам торговли. Это также результат международного доверия и сотрудничества, порождаемых и укрепляемых системой.

История изобилует примерами превращения торговых споров в войну. Одним из самых ярких является торговая война 1930-х годов, когда страны конкурировали в деле возведения торговых барьеров, чтобы защитить отечественных

производителей, и принятия ответных мер в отношении барьеров конкурентов. Это усугубилось Великой депрессией и в конечном итоге сыграло свою роль в развязывании Второй мировой войны.

Два события сразу после Второй мировой войны помогли избежать повторения довоенной напряженности в области торговли. В Европе развивалось международное сотрудничество в области добычи угля и железной руды, а также производства стали. А на глобальном уровне было создано Генеральное соглашение по тарифам и торговле (ГАТТ).

Оба направления успешно эволюционировали, и в настоящее время они существенно дополнены и значительно расширены — одно из них сформировалось в Европейский союз, а другое превратилось во Всемирную торговую организацию (ВТО).

Торговая система ВТО играет важную роль в создании и укреплении доверия к принципам свободной торговли. Особенно важен такой элемент, как переговоры, ведущие к соглашению на основе консенсуса с акцентом на неукоснительное соблюдение правил.

Продавцы, как правило, не хотят вступать в противоречия со своими клиентами — клиент всегда прав. Другими словами, если торговые потоки текут плавно и участники к взаимной выгоде и добровольно поддерживают здоровые коммерческие отношения, то политическая конфронтация практически исключена.

Кроме того, хорошо организованные торговые отношения также содействуют повышению всеобщего благосостояния на глобальном уровне. Также представляется маловероятным, что население процветающих и благополучных стран склонно к агрессии и развязыванию военных конфликтов.

5. Berilgan ma'lumotni kengaytirib yozing.

Bojxona ittifoqi — ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro bojxona chegaralarini bekor qilish, boshqa mamlakatlar uchun yagona boj tariflarini joriy etish to'g'risidagi bitim; davlatlarning bojxona siyosati sohasida hamkorlikda faoliyat olib borish maqsadlarida birlashuvi. Bojxona ittifoqi asosan ittifoqqa a'zo davlatlarda ishlab

chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligini ko‘tarish maqsadlarida boj undirish, a‘zo bo‘lmagan davlatlarga nisbatan yuqori boj stavkalari masalalarini tartibga soladigan ikki yoki ko‘p tomonlama bojxona konvensiyalari asosida tashkil etiladi.

Dastlabki bojxona ittifoqlaridan biri 1865-yilda Fransiya va Monako o‘rtasida tuzilgan. 1924-yilda Shveysariya bilan Lixtenshteyn knyazligi o‘rtasida bojxona ittifoqi vujudga keldi. Rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi bojxona ittifoqlariga Ta‘riflar va savdo to‘g‘risida Bosh kelishuv (GATT), Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH), Yevropa erkin savdo uyushmasi (YESU) misol bo‘ladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida 1997-yilda Rossiya bilan Belorussiya o‘rtasida, 1998-yilda Rossiya, Belorussiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida Bojxona ittifoqi yuzaga keldi. Shuningdek, 1998-yilda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlari o‘rtasida ham yagona iqtisodiy makon barpo etish maqsadlarida Bojxona ittifoqi tashkil etildi.

6. Matnni o‘qib, mazmunini gapirib bering.

Turli davlatlarning bojxona xizmatlarini bevosita o‘zaro bog‘lovchi, tajriba va o‘zaro axborot almashish imkonini beruvchi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi xalqaro organ – Jahon bojxona tashkiloti (JBT) dir. JBT – bojxona sohasidagi yagona hukumatlararo tashkilot.



1947-yilda G‘arbiy Yevropadagi 13ta mamlakat tashabbusi bilan Yevropa Iqtisodiy hamkorlik qo‘mitasi doirasida qabul qilingan qo‘shma Deklaratsiyada Yevropada bojxona ittifoqini tashkil etish masalasi qo‘yildi.

Buning natijasida 1950-yilda 17ta Yevropa davlatlari o‘rtasida “Bojxona hamkorlik kengashini ta‘sis etish haqida”gi Konvensiya imzolandi.

Bojxona hamkorlik kengashining birinchi ta‘sis sessiyasi 1952-yil 26-yanvarda bo‘lib o‘tdi. Kengash qaroriga ko‘ra, 1983-yildan boshlab 26-yanvar “Xalqaro bojxona kuni” deb nishonlana boshladi.

Keyinchalik ushbu Konvensiyaga dunyoning boshqa davlatlari ham a'zo bo'la boshladilar. Kengash Shtab-kvartirasi Brussel shahrida joylashgan.

Ushbu konvensiya talablaridan kelib chiqqan holda Kengash:

- bojxona sohasida hamkorlikni rivojlantirishning barcha masalalarini o'rganadi;
- bojxona ishida oliy darajada bir xillikka erishish maqsadida zarur amaliy tadbirlar ishlab chiqib, takliflar beradi;
- bojxona tizimiga oid texnik aspektlar va iqtisodiy omillarni chuqur o'rganadi;
- yangi xalqaro konvensiyalar loyihalarini, amaldagi konvensiyalarga qo'shimcha loyihalarni ishlab chiqadi;
- bojxona sohasidagi konvensiyalarni talqin etish yoki qo'llash jarayonida yuzaga keladigan munozarali masalalarni hal etish bo'yicha tavsiyalar (ishlab chiqib, tegishli davlatlarga taqdim etadi);
- bojxona xizmatlarini bojxona boshqaruv tizimi va bojxona protseduralariga oid ma'lumotlar bilan muntazam ta'minlab boradi.

Kengash a'zolarining soni ortib borganligi, uning jahon hamjamiyatidagi salmog'i va ta'sir doirasi kengayib borayotganligini inobatga olib, Kengashning 1994-yil iyun Sessiyasi qaroriga binoan Bojxona hamkorlik kengashi Jahon bojxona tashkiloti (JBT) deb atala boshlandi.

JBTning bugungi kundagi asosiy vazifasi jahon mamlakatlarida, ayniqsa jiddiy iqtisodiy shakllanish jarayonlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda zamonaviy, samarali, ko'p funksiyali bojxona xizmatini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashishdir.

Dunyo bo'ylab savdo aylanmasining 98%i JBTga a'zo davlatlar ulushiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi ushbu tashkilotga 1992-yil 28-iyulda a'zo bo'ldi. Mamlakatimiz 21ta xalqaro bojxona konvensiyasining a'zosi bo'lib, bugunga kelib JBT ishida faol ishtirok etyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi farmoniga ko'ra, mamlakatimizda 26-yanvar Davlat bojxona xizmati xodimlarining kuni etib belgilandi.

7. Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. Uni davom ettirgan holda so‘zlab bering.

В сегодняшнем быстро меняющемся мире таможенные администрации вынуждены непрерывно, зачастую очень быстро реагировать на социальные, экономические и политические изменения. Залогом эффективного выполнения возложенных на них функций и достижения необходимого результата являются динамичная адаптация принципов их работы к современным реалиям, уровень обновления инфраструктуры и условий взаимодействия с участниками таможенных правоотношений.

Являясь частью международного таможенного сообщества, таможенная служба Узбекистана находится в целенаправленном поиске наиболее эффективных и рациональных путей реализации своих реформ в контексте стратегических задач ВТамО.

Всемирная таможенная организация, конечно же, отдает себе отчет в существовании ряда проблем, стоящих перед национальными таможенными. В частности, зачастую многим из них приходится при неизменной численности штата более оперативно выполнять постоянно увеличивающиеся объемы работы. Для их решения в рамках своей Концепции ВТамО реализует ряд программных проектов.

8. Berilgan atamalarning o‘zbek tilidagi nomlarini yozing. Ularning har biri haqida ma’lumot tayyorlang.

Гармонизированная система

Киотская конвенция

Рамочные стандарты безопасности

Декларация Аруша

Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности

3-mashg'ulot

1. Berilgan soʻz va birikmalarning mazmunini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sammit, mintaqa, uyushma, hukumatlararo tashkilot, kuzatuvchi davlat, aksilterroristik tuzilma, infratuzilma, ijroqoʻm, narkotrafik.

2. Matnni oʻqib, mazmunini gapirib bering.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga (SHHT) dastlab 2001-yilda “Shanxay hamkorlik tashkilotini taʼsis etish toʻgʻrisida”gi Deklaratsiyaning imzolanishi bilan asos solingan. Ushbu deklaratsiya Rossiya Federatsiyasi, Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston va Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan imzolangan.

Bugungi kunga kelib SHHTga aʼzo mamlakatlar hududi 30 mln kvadrat kilometrdan ortiq maydonni – Yevroosiyo qitʼasining 3/5 qismini egallagan. Aholisi qariyb uch yarim milliard kishini yoki sayyoramiz aholisining yarmini tashkil qiladi.



1996-yilning 25-aprelida Xitoy, Rossiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Tojikiston davlat rahbarlari Shanxayda uchrashuv oʻtkazadilar. Uchrashuv chogʻida chegara hududlarida harbiy sohada oʻzaro ishonchni mustahkamlashga doir shartnoma imzolandi. Aytish mumkinki, bu uchrashuv Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzishdagi ilk qadamlardan biri edi. 1997-yilning 24-

aprelida Moskvada imzolangan “Chegara hududlarida harbiy kuchlarni qisqartirish toʻgʻrisidagi bitim” bir yil avvalgi imzolangan shartnomaga aniqlik kiritishda muhim hujjat sanaladi. Shu bilan bir qatorda Moskvadagi uchrashuv Yevroosiyo mintaqasidagi ikki yirik davlat – Rossiya va Xitoy munosabatlarida ham yangi qirralar ochilayotganining muhim dalolati edi.

SHHT tashkil topishining tarixiy ildizlari o'tgan asrning 60-yillariga borib taqaladi. Chunki sobiq Ittifoq va XXR o'rtasidagi hududiy muammolarni hal etish o'sha davridayoq pishib yetilgandi, unga barham berish esa ma'lum bir muddatni taqozo etardi. SSSRning parchalanishi va mintaqa taraqqiyoti kelajagi bilan bog'liq jarayonlar yangi paydo bo'lgan Rossiya Federatsiyasi va XXR o'rtasida o'zaro hududiy muammolarni hal qilish uchun qulay vaziyat yuzaga kelganligini ko'rsatdi.

2000-yilda SHHTning Dushanba shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashdi. 2001-yil 14-iyun kuni O'zbekiston delegatsiyasi "Shanxay beshligi"ning oliy darajadagi uchrashuvida qatnashdi. Mamlakatimiz SHHT ga a'zo bo'lib, uning muassisi va teng huquqli qatnashchisiga aylandi.

Shanxay sammitiga tashrif buyurgan 6ta mamlakat davlat rahbarlari O'zbekistonning "Shanxay forumi"ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risidagi qo'shma bayonotni imzoladi. Tuzilmaga O'zbekiston a'zo bo'lib kirishi bilan uning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti deb o'zgartirildi.

2017-yilda SHHT a'zolari qatoriga Hindiston va Pokiston davlatlari qo'shildi.

3. Savollarga javob bering.

Xalqaro integratsiya deganda nimani tushunasiz?

Iqtisodiy hamkorlik nimalarni ko'zda tutadi?

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo mamlakatlar hayotida nimalar o'zgaradi?

Erkin savdo zonasi nima?

4. Sxemaga tayanib kichik matn tuzing.



5. Ma'lumotlarni o'zbek tiliga o'giring va kengaytirib so'zlab bering.

Цели и задачи ШОС:

- укрепление взаимного доверия, дружбы и добрососедства между государствами-членами;
- развитие многопрофильного сотрудничества в целях поддержания и укрепления мира, безопасности и стабильности в регионе, содействия построению нового демократического, справедливого и рационального политического и экономического международного порядка;
- совместное противодействие терроризму, сепаратизму и экстремизму во всех их проявлениях, борьба с незаконным оборотом наркотиков и оружия, другими видами транснациональной преступной деятельности, а также незаконной миграцией;
- поощрение эффективного регионального сотрудничества в политической, торгово-экономической, оборонной, правоохранительной, природоохранной, культурной, научно-технической, образовательной, энергетической, транспортной, кредитно-финансовой и других областях, представляющих общий интерес;
- продвижение к созданию демократического, справедливого и рационального нового международного политического и экономического порядка;
- координация подходов при интеграции в мировую экономику;
- содействие обеспечению прав и основных свобод человека в соответствии с международными обязательствами государств-членов и их национальным законодательством;
- поддержание и развитие отношений с другими государствами и международными организациями;

- взаимодействие в предотвращении международных конфликтов и их мирном урегулировании;
- совместный поиск решений проблем, которые возникнут в XXI веке.

6. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida tuzilgan "Mintaqaviy aksilterroristik tuzilmasi to'g'risida"gi bitim matni bilan tanishib, uning asosiy g'oyalari ifodalab bering.

7. Matnni to'ldiring.

Shanxay hamkorlik tashkilotining Mintaqaviy aksilterroristik tuzilmasi (MATT) _____ da joylashgan bo'lib, _____ da tuzilgan. Uning vazifalariga _____, _____ va _____ ga qarshi kurashish bo'yicha takliflar va fikrlarni tayyorlash; a'zo davlatlardan MATTga kelib tushadigan axborotni _____ va _____, MATTning ma'lumotlar bankini _____ va _____; _____, _____ va _____ ga qarshi kurashish masalalariga oid xalqaro-huquqiy loyihalarni _____ da ishtirok etish kabilar kiradi.

MATTning tarkibi _____ va _____ dan tashkil topgan.

8. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyati to'g'risida elektron taqdimot tayyorlang.

Bojxona terminlarining qisqa o‘zbekcha-ruscha lug‘ati

А

Abonent	Абонент
Aksiyadorlik banki	Акционерный банк
Alkogolli/alkogolsiz ichimliklar	Алкогольные/безалкогольные напитки
Aloqa vositalari	Средства связи
Alohida toifaga kiruvchi shaxslar	Отдельные категории лиц
Alpinistlar aslaha-anjomlari	Альпинистское снаряжение
Alternativ narx	Альтернативная цена
Analitik kimyo usullari	Методы аналитической химии
Aniqlash, topish	Обнаружение
Arqon va chilvir mahsulotlari	Канатные и верёвочные изделия, тросы
Asbob	Инструмент
Asbob-uskuna, jihoz	Оборудование
Avariya	Авария
Aviareys	Авиарейс
“AVTO” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT)	Автоматизированная информационная система (АИС) «АВТО»
Avtomobil transporti	Автомобильный транспорт
Avtomobil-furgon	Автомобиль-фургон
Axborotni uzatish va saqlash tizimi	Система передачи и хранения информации
Axloqiy fazilatlar	Моральные качества

В

Badiiy, tarixiy va arxeologik ahamiyatga ega bo‘lgan buyumlar	Предметы художественного, исторического и археологического значения
Bagaj vagoni	Багажный вагон
Bagaj vaznini o‘lchash	Взвешивать багаж
Bagaj yorlig‘i	Багажный ярлык
Bagajni ko‘rsatish	Предъявить багаж
Bagajni olish zali	Зал получения багажа

Bagajni ochish	Распаковать багаж
Bagajni rentgen uskunasida tekshirish	Проверить багаж на рентген-аппарате
Bagajni o‘rash	Упаковать багаж
Balans narxi	Балансовая стоимость
Baliq ovlash anjomlari	Рыболовные снасти
Bank kafolati	Банковская гарантия
Barter shartnomasi	Бартерная сделка
Bayonnoma	Протокол, декларация
Bayonnomani imzolash	Подписать протокол
Bayonnomani rasmiylashtirish	Оформлять протокол
Bazis narxi	Базисная цена
Belgilangan marshrut	Установленный маршрут
Bepul bagaj joyi	Место бесплатного багажа
Beg‘araz	Безвозмездно
Bilakuzuk	Браслет
Bildirishnoma	Уведомление
Binolar, idishlarni ochish	Вскрытие помещений, ёмкостей
Binoni muhrlash	Опечатать помещение
Bir marta foylaniladigan test	Тест одноразового использования
Boj	Пошлина
Boj olinadigan	Облагаемый пошлиной
Bojdan ozod qilingan (bojsiz)	Освобождённый от пошлины
Bojga tortiladigan vazn	Вес, подлежащий обложению пошлиной
Bojni o‘z ichiga olgan narx	Цена, включающая таможенную пошлину
Bojsiz	Беспошлинный
Bojsiz savdo do‘koni	Магазин беспошлинной торговли
Boj-tarif boshqaruvi	Таможенно-тарифное регулирование
Bojxona boji	Таможенная пошлина
Bojxona hududi	Таможенная территория
Bojxona hududida qayta ishlash	Переработка на таможенной территории
Bojxona imtiyozi	Таможенная льгота
Bojxona ittifoqi	Таможенный союз

<p>Вожхона kuzatuvi Вожхона ko‘rigi “Вожхона ko‘rigi dalolatnomasi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT)</p>	<p>Таможенное сопровождение Таможенный досмотр Автоматизированная информационная система (АИС) «Акт таможенного досмотра»</p>
<p>Вожхона ma‘muriyati Вожхона nazorati zonasi Вожхона nazoratidan ozod qilish</p>	<p>Таможенная администрация Зона таможенного контроля Освобождение от таможенного контроля</p>
<p>Вожхона nazoratidan yashirincha olib o‘tish Вожхона nazoratining texnik vositalari Вожхона ombori “Вожхона ombori” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT) Вожхона organlarining tezkor-qidiruv faoliyati</p>	<p>Провоз с сокрытием от таможенного контроля Технические средства таможенного контроля Таможенный склад Автоматизированная информационная система (АИС) «Таможенный склад» Оперативно-розыскная деятельность таможенных органов</p>
<p>Вожхона protseduralarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya (Kioto Konvensiyasi) Вожхона protseduralarini uyg‘unlashtirish va soddalashtirish Вожхона qiymati Вожхона qiymatini aniqlash usullari Вожхона qiymatini baholash to‘g‘risidagi GATTning 1979 yilgi Kodeksi</p>	<p>Международная конвенция об упрощении и гармонизации таможенных процедур (Киотская Конвенция/конвенция Киото) Гармонизация и упрощение таможенных процедур Таможенная стоимость Методы определения таможенной стоимости Кодекс ГАТТ 1979 года об оценке таможенной стоимости</p>

“Bojxona qoidabuzarliklari”
avtomatlashtirilgan axborot tizimi
(AAT)

Bojxona qonunchiligi
Bojxona rasmiylashtiruvi uchun
bojxona yig‘imlari
Bojxona rasmiylashtiruvi
qoidalarining buzilishi
Bojxona rasmiyatchiligi
Bojxona ta‘minlovi
Bojxona to‘lovlari
“Bojxona to‘lovlari”
avtomatlashtirilgan axborot tizimi
(AAT)

Bojxona to‘lovlarini to‘lash
muddatlariga amal qilmaslik
Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan
bosh tortish
Bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri
hisoblash
Bojxona to‘lovlarining
hisoblanishi
Bojxona yuk deklaratsiyalari
ma‘lumotlarini qayta ishlash
avtomatlashtirilgan tizimi

Bojxona yuk deklaratsiyasi
(BYD)
Bojxona yuk tashuvchisi
Bojxona chegarasi
Bojxona chegarasini kesib o‘tish

Bojxona cheklovlari
Boshqoli g‘alla o‘simliklari
Boshqarishning notarif choralari

Boshqarishning tarif choralari

Автоматизированная
информационная система
(АИС) «Таможенные
правонарушения»
Таможенные правила
Таможенные сборы за
таможенное оформление
Нарушение правил
таможенного оформления
Таможенные формальности
Таможенное обеспечение
Таможенные платежи
Автоматизированная
информационная система
(АИС) «Контроль уплаты
таможенных платежей»
Нарушение сроков уплаты
таможенных платежей
Уклонение от уплаты
таможенных платежей
Правильность начисления
таможенных платежей
Исчисление таможенных
платежей
Автоматизированная система
обработки данных грузовых
таможенных деклараций
(АСОД ГТД)
Грузовая таможенная
декларация (ГТД)
Таможенный перевозчик
Таможенная граница
Пересечение таможенной
границы
Таможенные ограничения
Зерновые хлеба
Нетарифные меры
регулирования
Тарифные меры регулирования

Brutto narxi	Цена брутто
Buksirga (shatakka) oluvchi kema	Буксирное судно
Buyum	Вещь, изделие
Buyumni qalbakilashtirish	Фальсификация изделия
Bug‘doy kleykovinasi	Пшеничная клейковина
Bug‘lar/radioaktiv nurlanish detektori	Детектор паров/радиоактивного излучения
Bo‘yoqlar, pigmentli va boshqa bo‘yovchi moddalar	Красители, пигментные и прочие красящие вещества

D

Dalillar	Аргументы, доказательства
Dalolatnoma	Акт
Daromad solig‘i	Подходный налог
Daryo transporti	Речной транспорт
Dastlabki bojxona deklaratsiyasi	Первоначальная таможенная декларация
Dastlabki xulosa	Предварительное заключение
Dasturiy telekommunikatsion vositalar va tizimlar	Программные телекоммуникационные средства и системы
Dasturiy-texnik vositalar kompleksi	Комплекс программно-технических средств
Davlat foydasiga voz kechish	Отказ в пользу государства
Da’vogar	Истец, претендент
Deklaratsiya qilinadigan tovarlar	Товары, подлежащие декларированию
Deklaratsiyalash shakli	Форма декларирования
Deklaratsiyalashning soddalashtirilgan tartibi	Упрощенный порядок декларирования
Dengiz transporti	Морской транспорт
Dengizda ov qiluvchi kemalar	Суда морского промысла
Diniy adabiyotlar	Религиозная литература
Diplomatik vakolatxona xodimi	Сотрудник дипломатического представительства
Distillangan suv	Дистиллированная вода
Dori-darmon vositalari	Лекарственные средства
Dorivor giyohlar	Лекарственные растения

Е

Eksport bojxona deklaratsiyasi	Экспортная таможенная декларация
Eksport va importni hisobga olish	Учёт экспорта и импорта
Eksport litsenziyasi (olib chiqish sertifikat)	Лицензия на экспорт (сертификат на вывоз)
Ekspress-testlar to'plami	Набор экспресс-тестов
Elektron imzo	Электронная подпись
Elektron pochta	Электронная почта
Elektrotexnika uskunalari	Электротехническое оборудование
Elchixona	Посольство
Emlash	Прививать, сделать прививку
Erkin almashinadigan valuta	Свободно конвертируемая валюта
Erkin bojxona ombori	Свободный таможенный склад
Erkin muomalaga chiqarish	Выпуск для свободного обращения
Exolokatsiya asboblari (ultratovushli, radiolokatsion, gravitatsion)	Приборы эхолокации (ультразвуковые, радиолокационные, гравитационные)

Ф

Faktorli tahlil	Факторный анализ
Faktura bo'yicha vazn	Фактурный вес
Farmatsevtika mahsulotlari	Фармацевтические продукты
Fitoelektron ko'paytirgich	Фотоэлектронный умножитель
Foiz stavkasi	Процентная ставка
Foto va kino/videokameralar va ularning moslamalari	Фото и кино/видео камеры и приспособления к ним

Г

Garov	Залог
Gaz/suyuqlik xromatografi	Газовый/жидкостной хроматограф

Giyohvand moddalar	Наркотические вещества
Giyohvand moddalarni yutuvchilar	Наркоглотатели
Gumon qilinayotgan shaxs	Подозреваемый
Guvoh, xolis	Понятой
Go'shtli yarim tayyor mahsulotlar	Пищевые мясные субпродукты

Н

Halol raqobat	Добросовестная конкуренция
Haqiqiy narx	Фактическая цена
Harfli markirovka	Буквенная маркировка
Havo transporti	Воздушный транспорт
Havo yuklari	Воздушные грузы
Hayvonlardan olinadigan mahsulotlar	Продукты животного происхождения
Hisob-kitobni yuritish	Вести учёт
Hisob valutasi	Валюта исчисления
Hisobot	Отчёт
Hisobot davri	Отчётный период
Hududiy bojxona boshqarmalari	Территориальные таможенные управления
Hujjatlar ro'yxati	Перечень документов
Hujjatlarni olib qo'yish	Изъять документы
Hujjatlarni saqlash muddati	Срок хранения документов
Hujjatlarni taqdim etish	Предоставлять документы
Hukumat aloqasi	Правительственная связь
Huquq va majburiyatlar	Права и обязанности
Huquqni muhofaza qilish organi xodimi	Сотрудник правоохранительного органа

И

Idora	Учреждение, контора
Ijtimoiy himoya	Социальная защита
Ikki rakursli apparatlar	Двухракурсные аппараты
Ildizmevali o'simliklar	Корнеплоды и клубнеплоды

Ilona qilmoq/elimlamoq,
yopishtirmoq
Import bojxona deklaratsiyasi

Import litsenziyasi
Import qilingan yuk
Imtiyoz davri
Imtiyoz muddati
Inventar narx
Iqtisodiy samara
Iqtisodiy siyosat
Inson tanasidagi yashirish joylari

Inspektorlik ko'rik kompleksi

Ishlab chiqarish xarajatlari
Ishlov berilgan
Ishonchlilik

Приложить/приклеить

Импортная таможенная
декларация
Лицензия на импорт
Импортный груз
Льготный период
Льготный срок
Инвентарная стоимость
Экономический эффект
Экономическая политика
Места сокрытия на/в теле
человека
Инспекционно-досмотровый
комплекс
Производственные издержки
Обработанный
Достоверность

Ж

Jamg'armalar
Jangovar tayyorgarlik
Jarima
Jarima maydonchasi
Jarima miqdorini hisoblash
Jarima solish
Jarrohlik uskunalari
Jez
Jinoiy ish qo'zg'ash
Jinoiy-protsessual qonunchilik

Jismoniy shaxs
Jun gazlama
Jo'natuvchi

Фонды
Боевая подготовка
Штраф
Штрафная стоянка
Исчислять штраф
Наложение штрафа
Хирургические инструменты
Латунь, латунный
Возбудить уголовное дело
Уголовно-процессуальное
законодательство
Физическое лицо
Шерсть
Отправитель

К

Kadrlar siyosati

Кадровая политика

Kadrlarning qo‘nimsizligi
Kanop ip
Karantin hujjati
Kasb etikasi
Kelib chiqish sertifikatini
Kemalar
Kigiz, namat
Kimyoviy va biologik qurol

Kinologik xizmat
Kirish porti
Kliring hisob-kitoblari
Kiyilgan kiyim
Kod belgisi
Kolleksiya buyumlari
Kompyuterlashtirish
Konsullik vakolatxonasi
Konvertatsiya qilinmaydigan
valyuta
Kurs bo‘yicha narx
Kutish zali
Kuzatib boriladigan (bagaj)
Kuzatib borilmaydigan (bagaj)
Kuchli ta’sir qiluvchi modda
Ko‘knori
Ko‘knori po‘chog‘i
Ko‘p marotabali viza
Ko‘rik oynasi
Ko‘rikdan o‘tkazish xonasi
Ko‘zi ojizlar uchun adabiyotlar

Утечка кадров
Шпагат
Карантинный документ
Профессиональная этика
Сертификат происхождения
Суда
Войлок
Химическое и биологическое
оружие
Кинологическая служба
Порт захода
Клиринговые расчёты
Ношенная одежда
Кодовое обозначение
Предметы коллекционирования
Компьютеризация
Консульское представительство
Неконвертируемая валюта

Курсовая стоимость
Зал ожидания
Сопровождаемый багаж
Несопровождаемый багаж
Сильнодействующее средство
Мак
Маковая соломка
Множественная виза
Досмотровое зеркало
Досмотровая комната
Литература для слепых

L

Lavozim
Lavozim yo‘riqnomasi
Lavozimga tayinlash
Litsenziyani bekor qilish
Litsenziyani chaqirib olish

Должность
Должностная инструкция
Назначение на должность
Аннулировать лицензию
Отозвать лицензию

Litsenziyaning amal qilish
muddati
Lokal axborot-hisoblash
tarmoqlari

Срок действия лицензии

Локальные информационно-
вычислительные сети

М

Magnitsizlantiradigan uskuna
Mahalliy valuta
Mahsulot
Majburiy to'lov
Majburiy to'xtatish/transportga
chiqish, chiqarish
Majburiyatlar
Malaka attestati
Mamlakatdan chiqish vizasi
Mamlakatga kirish vizasi
Manfaatdor bo'lmagan shaxslar
Manfaatdor shaxs
Mansabdor shaxs
Manzil porti
Marvarid
Mas'uliyat
Mato
Mavsumiy bojlar
Maxfiy ma'lumot
Maxsus unvon
Ma'lumotlar bazasi
Ma'lumotlarni taqdim etish
Ma'muriy-texnik personal
(xodimlar)
Ma'muriy ushlab turish
Ma'muriy ushlab turish
to'g'risidagi bayonnoma
Ma'muriy xatti-harakat
Milliy qonunchilik
Mineral yoqilg'i
Minimal miqdor
Mis

Размагничивающий прибор
Местная валюта
Продукция
Принудительный платёж
Вынужденная остановка
/посадка
Обязанности
Квалификационный аттестат
Выездная виза
Въездная виза
Незаинтересованные лица
Заинтересованное лицо
Должностное лицо
Порт назначения
Жемчуг
Ответственность
Ткань
Сезонные пошлины
Секретная информация
Специальное звание
Справочная база
Представить сведения
Административно-технический
персонал
Административное задержание
Протокол об административном
задержании
Административное действие
Национальное законодательство
Топливо минеральное
Минимальное количество
Медь

Moddiy-texnik jihozlar	Материально-техническое оснащение
Mobil aloqa	Сотовая связь
Moliyaviy hisobot	Финансовая отчётность
Moliyaviy imtiyozlar	Финансовые льготы
Muddat	Срок
Muhr	Печать
Musiqa asboblari	Музыкальные инструменты
Muvofiqlik sertifikatini	Сертификат соответствия

N

Namuna	Проба
Namunaviy nusxa	Эталонный образец
Naqd pul	Наличные (деньги)
Naqd pulsiz hisob-kitob (kliring)	Безналичный расчёт (клиринг)
Narkotik vosita/modda	Наркотическое средство/ вещество
Narkotik vositalar noqonuniy aylanishining oldini olish	Пресечение незаконного оборота наркотических средств
Narx	Цена
Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar bulleteni	Бюллетень ценовой информации
Nazorat uskunalari	Контрольные приборы
Nasha	Анаша
Nasha o'simligi	Конопля (каннабис)
Nodir metallar	Редкоземельные металлы
Noorganik kimyo mahsulotlari	Продукты неорганической химии
Noqimmatbaho metallar	Недрагоценные металлы
Noqonuniy (nolegal) laboratoriya	Нелегальная лаборатория
Noqonuniy olib kirish/olib chiqishning oldini olish	Предотвращение нелегального ввоза/вывоза
Noqonuniy valuta operatsiyalari	Незаконные валютные операции
Notarial idora	Нотариальная контора
Notijorat tashuvlar	Некоммерческие перевозки
Noto'g'ri to'ldirilgan deklaratsiya	Ошибочно заполненная декларация

О

Ogohlantirish	Предупреждение
Ohak	Известь
Oldindan to‘lash	Предоплата
Olib kirish boji	Ввозная пошлина
Olib kirish deklaratsiyasi	Декларация на ввоз
Olib kirish litsenziyasi	Лицензия на ввоз
Olib chiqish punkti	Пункт вывоза
Oltin standarti	Золотой стандарт
Oltin suvi yugurtirilgan	Позолоченный
Oltinugurt	Сера
Ombor egasi	Владелец склада
Ombor guvohtonmasi	Складское свидетельство
Ombor(lar)ga joylash	Складирование
Omborga joylash tartibi	Процедура складирования
Omborga kirishga ruxsat	Допуск на склад
Omborni jihozlash	Обустроить склад
Ommaviy qirg‘in quroli	Оружие массового уничтожения
Optik, fotografik uskunalar va apparatlar	Приборы и аппараты оптические, фотографические
Optik kattalashtiruvchi uskunalar	Оптические увеличительные приборы
Oqsil moddalar	Белковые вещества
Organik kimyoviy birikmalar	Органические химические соединения
Ot yolidan olingan ip	Пряжа из конского волоса
Ovoz yozuvchi va ovoz aks ettiruvchi apparatura	Звукозаписывающая и звуковоспроизводящая аппаратура
Oylik hisobot	Ежемесячная отчётность
Oziq-ovqat mahsulotlari analizatori	Анализатор пищевых продуктов
Ozod qilish	Освобождение
Og‘zaki tanbeh	Устное замечание
Ochiq hisob	Открытый счёт

Р

Par	Пух
Pardoz buyumlari	Косметика
Pardozlovchi materiallar	Отделочные материалы
Parfumeriya vositalari	Парфюмерные средства
Patronlar	Патроны
Pirotexnika vositalari	Пиротехнические изделия
Pirofor qotishmalari	Пирофорные сплавы
Piyozboshlar	Луковицы
Poligrafiya sanoati mahsulotlari	Изделия полиграфической промышленности
Port inshootlari	Портовые сооружения
Portlovchi modda	Взрывчатое вещество
Poxol	Солома
Poyabzal	Обувь
Pochta-bagaj vagoni	Почтово-багажный вагон
Pochta jo'natmalari	Почтовые отправления
Pochta xizmatlari	Почтовые услуги
Proba va namunalar olish	Взятие проб и образцов
Psixotrop modda	Психотропное вещество
Pul birligi	Денежная единица
Pul o'tkazmasi	Денежный перевод
Po'kak	Пробка
Po'lat	Сталь

Q

Qabulxona	Приёмная
Qadimiy	Старинный
Qahrabo	Янтарь
Qalay	Олово
Qalbaki	Фальшивый
Qalbaki bitim	Фиктивная сделка
Qandolat mahsulotlari	Кондитерские изделия
Qaror	Решение
Qasamyod	Присяга
Qayiqalar	Лодки
Qayta ishlash	Обработка

Qiyamat	Стоимость
Qiyoslash vositalari	Средства идентификации
Qimmatbaho metallar	Драгоценные металлы
Qimmatli qog‘ozlar	Ценные бумаги
Qoidabuzar	Нарушитель
Qonunchilikka muvofiq	Согласно законодательству
Qora metallardan buyumlar	Изделия из чёрного металла
Qog‘oz va karton chiqindilari, makulatura	Бумажные и картонные отходы и макулатура
Qoshiqlar va sanchqilar	Ложки и вилки
Qurilish konstruksiyalari	Строительные конструкции
Qurilma	Оборудование
Quyma oltin	Золото в слитках
Qo‘l yuki	Ручная кладь (ручной багаж)
Qo‘lyozma	Рукопись
Qo‘rg‘oshin	Свинец
Qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS)	Налог на добавленную стоимость (НДС)

R

Radioaktiv materiallar	Радиоактивные материалы
Rangtasvir	Живопись
Rasm (chizilgan)	Рисунок
Rasmiy hujjatlar	Официальные документы
Rasmiy ma’lumotlar	Официальные сведения
Raqamli /harfli markirovka, tamg‘a qo‘yish	Нанесение цифровой/ буквенной маркировки
Rentgen televizion qurilmasi	Рентгенотелевизионная установка
Rux	Цинк
Ro‘yxatga olingan (bagaj)	Зарегистрированный (багаж)

S

Sabzavotlar	Овощи
Safsar	Сапфир
Sanitar-karantin ko‘rigi	Санитарно-карантинный досмотр

San'at asarlari
Savatlar
Savdo hujjatlari
Sifat sertifikati
Sinov muddati
Sirka
Sitrusli mevalar
Siyohlar
Soddalashtirilgan bojxona nazorati
Soliq deklaratsiyasi
Soliq imtiyozi
Soliq qarzi
Soliq siyosati
Soliq tushumi
Soliqqa tortish
Sovuq qurol
Sport anjomlari
Sud-tergov ishlari
Sun'iy gullar
Surishtiruv
Suvoqchilikka oid materiallar
Suzish vositalari
Sug'urta

Произведения искусства
Корзиночные изделия
Торговые документы
Сертификат качества
Испытательный срок
Уксус
Цитрусовые
Чернила
Упрощённый таможенный контроль
Налоговая декларация
Налоговая льгота
Налоговая задолженность
Налоговая политика
Налоговые поступления
Налогообложение
Холодное оружие
Спортивный инвентарь
Судебные дела
Искусственные цветы
Дознание
Штукатурные материалы
Плавающие средства
Страхование

Т

Tabiiy mo'yna
Tabiiy ofatlar
Tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan yetishtirilgan marvarid
Talabga muvofiq
Tamaki mahsulotlari
Taninlar va ularning hosilalari
Tannarx
Tarif preferensiyalari
Tarif va savdo bo'yicha Bosh bitim
Tarozida tortish

Натуральный мех
Стихийные бедствия
Жемчуг природный или культивированный
По требованию
Табачные изделия
Танины и их производные
Себестоимость
Тарифные преференции
Генеральное соглашение по тарифам и торговле (ГАТТ)
Взвешивание

Ta' sis hujjatlari	Учредительные документы
Tasniflash	Классифицировать
Tasvirlar analizatori	Анализатор изображений
Tavsifnoma	Характеристика
Tayyor mumlar	Готовые воски
Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	Готовые пищевые продукты
Tashqi iqtisodiy aloqalar	Внешнеэкономические связи
Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF)	Внешнеэкономическая деятельность (ВЭД)
Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN)	Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД)
Tashqi ko'rik	Внешний осмотр
Tashqi savdo aloqalari	Внешнеторговые связи
Tashqi savdo balansi	Внешнеторговый баланс
Tashqi savdo bojxona statistikasi	Таможенная статистика внешней торговли
Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi	Единая электронная информационная система внешнеторговых операций (ЕЭИС ВО)
Tashuvchi	Перевозчик
Tegirmonchilik mahsulotlari	Продукция мукомольно-крупяной промышленности
“Temir yo‘l” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT)	Автоматизированная информационная система (АИС) «Железная дорога»
Temir yo‘l tashuvlari	Железнодорожные перевозки
Teri oshlash va bo‘yoq ekstraktlari	Экстракты дубильные или красительные
Tez buziladigan yuk	Скорпортящийся груз
Tezkor hisobot berish	Оперативная отчётность
Tezkor-qidiruv tadbirlar	Оперативно-розыскные мероприятия
Tibbiyot uskunalari	Медицинские инструменты
Tijorat banki	Коммерческий банк
Tijorat siri	Коммерческая тайна
Tirik hayvonlar	Живые животные

Tovar ishlab chiqarilgan mamlakat (olib kirishda)	Страна происхождения (при ввозе)
Tovar yetkazib beriladigan mamlakat (olib chiqishda)	Страна назначения (при вывозе)
Tovar zaxirasi	Товарный запас
Tovarlar va xizmatlarni sertifikatlash	Сертификация товаров и услуг
Tovarlardan namuna olish	Взятие проб и образцов товаров
Tovarlarni vaqtincha olib kirish uchun Karnet ATA to‘g‘risidagi bojxona konvensiyasi (ATA Konvensiyasi)	Таможенная Конвенция о Карнете АТА для временного ввоза товаров (Конвенция АТА)
Tovarlarni tasniflash va kodlashtirish haqidagi Uyg‘unlashgan tizim (UT)	Гармонизированная система описания и кодирования товаров (ГС)
Tovarlarni qiyoslash “Tovarlarning bojxona ekspertizasi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT)	Идентификация товаров Автоматизированная информационная система (АИС) «Таможенная экспертиза товаров»
Tovarlarni xalqaro savdoda kodifikatsiya qilish	Кодификация товаров в международной торговле
Tovarlarni yetkazib berish	Доставка товаров
Tovarning kelib chiqish sertifikati	Сертификат происхождения товара
Tovarning standartlarga muvofiqligi to‘g‘risidagi deklaratsiya	Декларация о соответствии товара стандартам
Topilmalar byurosi	Бюро находок
Transport vositalarini majburiy to‘xtatish	Принудительная остановка транспортных средств
Transport xarajatlari	Транспортные расходы
Tranzit tashuv	Транзитная перевозка
Tranzit yuklar	Транзитные грузы
Turistlar aslaha-anjomlari	Туристское снаряжение
Tushuntirish xati	Объяснительная
To‘liq bo‘lmagan deklaratsiya	Неполная декларация
To‘liq (tugallangan) hisob-kitob	Окончательный расчёт
To‘lov balansi	Платёжный баланс

To'lov qiymati	Платёжная стоимость
To'lovlar miqdori	Сумма выплат
To'lovni kechiktirish	Отсрочка платежа
To'lovning imtiyozli shartlari	Льготные условия платежа
To'qilgan buyumlar	Плетёные изделия
To'qimachilik mahsuloti	Текстиль

U

Ulgurji narx	Оптовая цена
Umumiy foydalanish tarmog'i	Сеть общего пользования
Uchib kelish zali	Зал прилёта
Uchib ketish zali	Зал вылета
Uchish apparatlari	Летательные аппараты
Uyushgan guruh	Организованная группа

V

Vakil	Представитель
Vakolat	Компетенция, полномочия
Vakolatli bank	Уполномоченный банк
Valuta almashtirish kursi	Обменный курс валюты
Valuta boyliklari	Валютные ценности
Valuta hisob-kitoblari	Валютные расчёты
Valuta tushumi	Валютная выручка
Valutani ushlab qolish	Задержать валюту
Vaqtincha olib kirish (olib chiqish)	Временный ввоз (вывоз)
Vaqtincha olib kirish to'g'risida Konvensiya (Istambul konvensiyasi)	Конвенция о временном ввозе (Стамбульская Конвенция)
Vaqtincha saqlash	Временное хранение
Varaqa	Листовка
Vasiylik	Опекунство, опека
Vazifalar	Функции
Vaziyat (holat)	Обстоятельства
Ventilyasiya shaxtasi	Вентиляционная шахта

Veterinar/fitosanitar/ekologik
nazorat

Ветеринарный/фитосанитарный
/ экологический контроль

Х

Xabar (xabarnoma)
Xalqaro avtomobil o'tish punkti

Уведомление
Международный
автомобильный пункт пропуска

Xarajatlar
Xavf guruhi
Xizmat binolari
Xizmat safari
Xizmat va maishiy xonalar

Расходы
Группа риска
Служебные помещения
Служебная командировка
Служебные и бытовые
помещения

Xizmat vazifalari
Xizmatga noloyiqlik
Xorijiy davlat delegatsiyasi

Функциональные обязанности
Служебное несоответствие
Делегация иностранного
государства

Xorijiy davlatlar diplomatik
vakillari uchun bojxona
imtiyozlari

Таможенные льготы для
дипломатических
представителей иностранных
государств

Xorijiy davlatning diplomatik
vakolatxonasi

Дипломатическое
представительство
иностранного государства

Xorijiy valuta
Xususiy bojxona ombori
Xususiy mulk
Xususiy samolyot

Иностранная валюта
Частный таможенный склад
Частная собственность
Частный самолёт

У

Yagona avtomatlashtirilgan
axborot tizimi (YAAT)

Единая Автоматизированная
Информационная Система
(ЕАИС)

Yadroviy reaktorlar
Yangi uzilgan gullar
Yarim qimmatbaho toshlar
Yashash manzili

Реакторы ядерные
Срезанные цветы
Полудрагоценные камни
Место жительства

Yashirilgan tovar	Сокрытый товар
Yashirincha olib o'tish	Тайный провоз
Yelimlash	Клеить, приклеить, заклеить
Yem-xashak	Фураж
Yetib kelish porti	Порт прибытия
Yetkazib berilgan yuk	Доставленный груз
Yetkazib berish xarajatlari	Расходы на доставку
Yetkazib berish shartlari	Условия поставки
Yillik hisobot	Годовая отчетность
Yirik miqdorda	В значительном размере
Yirik hajmli yuklar	Крупногабаритные грузы
Yig'im	Сбор
Yig'ma yuk	Сборный груз
Yodlangan	Йодированный
Yonuvchan moddalar	Горючие вещества
Yoritgich	Осветительное устройство
Yorituvchi ko'rsatkichlar	Световые указатели
Yorituvchi moslamalar	Осветительные приспособления
Yorliq	Бирка, ярлык
Yormalar	Крупы, злаки
Yopuvchi-plomba qo'yuvchi uskuna	Запорно-пломбировочное устройство
Yoqut	Рубин
Yovvoyi hayvonlar	Дикие животные
Yovvoyi o'simliklar	Дикорастущие растения
Yozma ravishda murojaat qilish	Обращение в письменной форме
Yog'och	Древесина
Yuk jo'natuvchi	Грузоотправитель
Yuk tashish	Грузовые перевозки
Yuk tashuvchi	Перевозчик
Yuklarni konosament bilan tashish	Коносаментная перевозка грузов
Yo'l anjomlari	Дорожные принадлежности
Yo'lovchi	Пассажир
Yo'lovchilar oqimi	Пассажиропоток
Yo'q bo'lib ketish xavfi	Угроза уничтожения
Yo'q qilish	Уничтожение
Yukni ortish punkti	Пункт погрузки

Yumshoq o‘yinchoqlar
Yuvish vositalari

Мягкие игрушки
Моющие средства

Z

Zaharli modda
Zaharlovchi modda
Zaxira
Zaytun moyi
Ziravorlar
Zirhli texnika
Zumrad

Ядовитое вещество
Отравляющее вещество
Запас
Оливковое масло
Пряности
Бронированная техника
Изумруд

O‘

O‘lchov uskunalari
O‘ralgan yuk
O‘ram
O‘ramni ochish
O‘rtacha narx
O‘simlik sharbatlari va ekstraktlar
O‘simlikdan olingan
to‘qimachilik tolasi
O‘simliklardan olinadigan yog‘lar
va moylar
O‘simliklardan olinadigan
mahsulotlar
O‘q-dorilar
O‘quv qurollari
O‘xshashlik
O‘ymakorlik mahsulotlari
O‘zbekiston Respublikasi Davlat
bojxona qo‘mitasi

O‘g‘itlar

Измерительные приборы
Упакованный груз
Упаковка
Вскрыть упаковку
Средняя стоимость
Растительные соки и экстракты
Растительные текстильные
волокна
Жиры и масла растительного
происхождения
Продукты растительного
происхождения
Боеприпасы
Учебные принадлежности
Идентичность
Гравированные изделия
Государственный таможенный
комитет Республики
Узбекистан
Удобрения

G‘

G‘alla mahsulotlari	Зерновые продукты, зерновые культуры
G‘ildirak	Колесо
G‘ilof	Футляр, чехол
G‘ishtli bino	Кирпичное здание

SH

Shartnoma	Контракт
Shartnomani imzolash	Подписание контракта
Shaxsiy bagaj	Личный багаж
Shaxsiy ehtiyojlar uchun tovarlar	Товары личного пользования
Shaxsiy ko‘rik bayonnomasi	Протокол личного досмотра
Shihkastlangan yuk	Повреждённый груз
Shikoyat qilmoq	Обжаловать
Shpaklyovkalar va boshqa mastikalar	Шпаклёвки и прочие мастики
Shuursizlik, aqli norasolik	Невменяемость

CH

Chakana narx	Розничная цена
Charm	Кожа
Chang‘i	Лыжи
Chegarani kesib o‘tish punkti	Пункт пересечения границы
Chegirmasiz narx	Цена без скидки
Chetlatish	Отстранение
Chiqim (xarajat, sarf)	Издержки
Chig‘anoq	Ракушка, раковина
Chorak	Квартал
Cho‘ntak yoritgichi	Карманный фонарь
Cho‘ntak kalkulyatori	Карманный калькулятор
Cho‘yan	Чугун

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давлат божхона хизмати тўғрисида (янги таҳрири)/ЎЗР Қонуни//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.10.2018 й., 03/18/502/2068-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси божхона кодекси. – Т.: Адолат, 2016.–576 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жисмоний шахслар томонидан нақд хорижий валютани олиб кириш ва олиб чиқиб кетиш тартибини янада соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 06.12.2017 йилдаги ПФ-5276 сонли Фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ташқи бозорларда маҳаллий маҳсулотлар рақобатдошлигини таъминлаш ва экспортини рағбатлантиришга доир кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 15.12.2017 йилдаги ПФ-5286-сон Фармони.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 12.04.2018 йилдаги ПФ-5414-сон Фармони.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона кўмитаси фаолиятини ташкил этиш борасидаги кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори/ЎЗР ҚХТ, 2006. – 10-сон, 75-модда.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси божхона чегараси орқали ўтказиш пунктларида икки йўлакли тизимни қўллаш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 11.10.2017 йилдаги 814-сон Қарори.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Жисмоний шахслар томонидан нақд хорижий валютани Ўзбекистон Республикасининг божхона чегараси орқали олиб кириш ва олиб чиқиб кетиш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги 30.01.2018 йилдаги 66-сон Қарори.

9. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона кўмитасининг “Йўловчи божхона декларациясини тўлдириш ва расмийлаштириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2014 йил 5 августда 2606-сон билан рўйхатдан ўтказилган, 2018 йил 17 январда 2606-3 сон билан ўзгартириш киритилган).

10. Божхона атамалари русча-ўзбекча қисқа луғати/С.Абдуллаев, Г.Асилова.–Тошкент: GROTEKS, 2002.–112 б.

11. Божхона терминларининг қисқача имло луғати/Г.Асилова. – Тошкент: ОҲБИ, 2005. – 76 б.

12. Божхона ходимлари учун ўзбекча-русча-инглизча луғат-сўзлашгич/Г.Асилова, Д.Абдуазизова.–Тошкент: ОҲБИ, 2013.–80 б.

13. Большой таможенный словарь/Под ред. А.Н.Азрштяна. – Москва, 1999. – 598 с.

14. Жаҳон божхона ташкилотининг махсус божхона атамалари луғати. – Тошкент, 1999. – 60 б.

15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/5 жилдли. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 1-жилд, 2006. – 680 б., 2-жилд, 2006. – 672 б., 3-жилд, 2006. – 688 б., 4-жилд, 2008.–608 б., 5-жилд, 2008.–592 б.

16. Arusha Declaration (Declaration of the Customs co-operation Council Concerning good governance and integrity in Customs). Done at Arusha, Tanzania, on the 7th day of July 1993 (81st/82nd Council Sessions) and revised in June 2003 (101st/102nd Council Sessions).

17. Internet saytlari:

http://old.customs.uz/m_uz/static_pages/custom_service/97/

http://sahifa.tj/rusko_uzbeks_kij_razgovornik.aspx

http://sahifa.tj/uzbeks_ko_russ_kij.aspx

<http://www.tks.ru/tambook/dict/>

MUNDARIJA

	So‘zboshi	3
<i>1-mavzu</i>	Bojxona terminologiyasi	4
<i>2-mavzu</i>	Bojxona ishining vujudga kelishi va taraqqiyoti	
	1-mashg‘ulot	8
	2-mashg‘ulot	16
<i>3-mavzu</i>	O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishiga oid qonunchiligi	21
<i>4-mavzu</i>	O‘zbekiston bojxona xizmati	
	1-mashg‘ulot	27
	2-mashg‘ulot	30
	3-mashg‘ulot	33
<i>5-mavzu</i>	Bojxona xodimlarining kasb etikasi va nutq madaniyati	
	1-mashg‘ulot	36
	2-mashg‘ulot	42
<i>6-mavzu</i>	Bojxona organlari faoliyatida axborot texnologiyalarining qo‘llanishi	50
<i>7-mavzu</i>	Bojxona nazorati	
	1-mashg‘ulot	59
	2-mashg‘ulot	62
	3-mashg‘ulot	66
<i>8-mavzu</i>	Madaniy yodgorliklarni asrashda bojxona organlarining roli	72
<i>9-mavzu</i>	Kontrabanda va uning iqtisodiy zarari	80
<i>10-mavzu</i>	Bojxona organlarining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi	
	1-mashg‘ulot	86
	2-mashg‘ulot	92
	3-mashg‘ulot	99
	Bojxona terminlarining o‘zbekcha-ruscha qisqa lug‘ati	100
	Foydalanilgan adabiyotlar	122

ASILOVA GULSHAN ASADOVNA

pedagogika fanlari doktori

**BOJXONA ORGANLARI XIZMAT
FAOLIYATIDA DAVLAT TILI**

**Oliy ta'limning "Bojxona ishi" yo'nalishi
rus guruhlari talabalari uchun uslubiy qo'llanma**

DBQ Bojxona instituti

Toshkent – 2019